

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



MAKTABGACHA TA'LIM

**Maktabgacha ta'limning konseptual
asoslari va zamonaviy yondoshuvlar**

MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUUA



TOSHKENT-2022



Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: D.R. Babayeva - pedagogika fanlari nomzodi, professor
p.f.f.dok. (PhD) - M.P.Imomov

Taqrizchilar: E.R.Yuzlikayeva – I.M. Gubkin nomli RDU, p.f.n., doktori

Xorijiy ekspert: Lee Yu Mi - Seul pedagogika universiteti
(Janubiy Koreya), professor.

**O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2022 yil 27 avgustdagi
1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**



MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	20
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	74
V. KEYSLAR BANKI.....	83
VI. GLOSSARIY	87
VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	97



I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar taraqqiyotida ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, zamonaviy taraqqiyotga mos, har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash, globallashtirish jarayonlariga moslashtirish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, Oliy ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi yuksak intellektual salohiyatli, ijodkor, raqobatbardosh mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Respublikamiz ta'lim tizimida o'quv dasturlari, mazmuni, standartlarini takomillashtirish, rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim ta'raqqiyotiga moslashtirish, o'z navbatida mutaxassislar tayyorlash sifatini orttirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday o'zgarishlar bilim olishning yangi texnologiyalari, masofaviy, loyihali ta'lim, media ta'lim, shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Ta'limning zamonaviy globallashtirish va axborotlashuv jarayonida bo'lajak tarbiyachi(pedagog)ning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltirilganligi zamon ta'labidir. Oliy ta'lim tizimida taxsil olayotgan bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'zigaxoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam berish aniq maqsadlardan biridir. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatni tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, tarbiyalanuvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi va takomillashuvini yuzaga keltiradi. Kreativlikning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda, oliy maktab pedagogik tarkibi jadal rivojlanayotgan innovatsion ta'lim tizimi, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, ijod potentsiali, o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish, ijodiy individuallik va kreativlik talablariga javob berish muammosiga katta e'tibor qaratishi lozim. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'limni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "– kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi



tizimi maktabgacha ta'lim sohasini bolalarni tarbiyalash va hartomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlay olmasligi"¹ kabi mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilishi ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarorida; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim –tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, yestetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida etibor qaratildi². Bu qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Maktabgacha ta'limning konseptual asoslari va zamonaviy yondoshuvlar” **modulining maqsadi:** pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

“Maktabgacha ta'limning konseptual asoslari va zamonaviy yondoshuvlar” **modulining vazifalari:**

“Maktabgacha ta'lim” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

-zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovasion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;

“Maktabgacha ta'lim” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasini ta'minlash.

¹ Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta'limni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroridan

² *Turkiston ro'znomasi 2017 yil 1-fevral 3-bet.



Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Maktabgacha ta'limning konseptual asoslari va zamonaviy yondoshuvlar” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

– maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni;

– Maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning dolzarb masalalarini;

– maktabgacha ta'limning pedagogik jarayoniga innovatsion yondashuvini;

– o'liy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni qo'llashni;

– maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi dasturlar asosida ishlay oladigan kadrlarni sifatini oshirishni;

– Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashni;

– bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarni shakllantirish texnologiyasini;

– maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muammoliy o'qitish texnologiyalarini;

– pedagogik kvalimetriya mezonlari, metodlari va ularning ta'lim natijalarini baholashdagi ahamiyatini;

– kvalimetrik nazorat texnologiyasi haqida **bilimlarga ega bo'lishi;**

Tinglovchi:

– Maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqaruv tizimini takomillashtirishni tarkib toptirish;

– maktabgacha ta'lim jarayonini loyihalashtirish va o'quv materiallarini tizimlashtirish;

– maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

– yangicha yondashuvlar asosida talabalarda kasbiy va kreativ qobiliyatni shakllantirish;

– maktabgacha ta'lim fanlarini o'qitishning innovatsion shakllari, metod va vositalaridan foydalanish;

– kvalimetrik jarayonni tashkil etish va o'tkazish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida kutilayotgan natijalarni bashorat qilish, identiv o'quv maqsadlarini shakllantirish;

kvalimetrik nazorat texnologiyasidan foydalanish **ko'nikmalarini egallashi;**

Tinglovchi:

– o'quv materiallarini tizimlashtirishning didaktik parametrlarini yaratish;

– interfaol ta'lim vositasida talabalarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish;



- kompetentli yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirish;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;
- maktabgacha ta'lim fanlaridan kurs ishi (loyihasi)ni tayyorlash;
- bitiruv malakaviy ishlari bajarilishining tashkiliy va ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish;
- talabalar bilimini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish texnologiyalari amalga oshirish kabi **malakalarini egallashi;**

Tinglovchi:

- Maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning dolzarb masalalarini o'rganish;
- Oliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni qo'llash;
- **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi dasturlar asosida ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash;**
- zamonaviy o'qituvchisining o'quv-me'yoriy xujjatlarini ishlab chiqish;
- nazariy, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;
- Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash;
- kvalimetrik jarayonni tashkil etish va o'tkazish;
- talabalar bilimini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish hamda pedagogik faoliyatda qo'llay olish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Maktabgacha ta'limning konseptual asoslari va zamonaviy yondoshuvlar” kursi ma'ruza mashg'ulotlari shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Maktabgacha ta'limning konseptual asoslari va zamonaviy yondoshuvlar” moduli mazmuni o'quv rejadagi “**Maktabgacha ta'lim fanlarini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish**” o'quv moduli bilan uzviy bog'langan holda



Maktabgacha ta'lim fanlarini o'qitish mazmunini integrasiyalash. Maktabgacha ta'limning konseptual asoslari va zamonaviy shakllari, metod va vositalarini o'rganishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar, o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or tajribalar hamda, zamonaviy yondashuvlarni o'rganish. Zamonaviy ta'lim va innovasion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar bilan tanishish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish	4	2	2
2.	Maktabgacha ta'limning pedagogik jarayoniga innovatsion yondashuv	6	2	4
3.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi dasturlar asosida ishlay oladigan kadrlarni sifatini oshirish	4	2	2
4.	Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarni shakllantirish texnologiyasi	6	2	4
Jami		20	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqaruv tizimini takomillashtirish. Maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning dolzarb masalalari.

2-Mavzu: Maktabgacha ta'limning pedagogik jarayoniga innovatsion yondashuv.

Oliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni qo'llash. Xorijiy ta'limdagi tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatorlik faoliyati tushunchalarini joriy etish.



3-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi dasturlar asosida ishlay oladigan kadrlarni sifatini oshirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan ilg'or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagoglarni tayyorlash. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash.

4-Mavzu: Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarni shakllantirish texnologiyasi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muammoliy o'qitish texnologiyalari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatiga innovatsion yondashuv.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish. (2 soat)

Maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning dolzarb masalalari. "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi". Pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishiga, moslashuvchan fikrlashga ega bo'lishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi.

2-Mavzu: Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning pedagogik jarayoniga innovatsion yondashuv. (4 soat)

Oliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni qo'llash. Xorijiy ta'limdagi tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatorlik faoliyati tushunchalarini joriy etish.

3-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi dasturlar asosida ishlay oladigan kadrlarni sifatini oshirish. (2 soat)

Pedagogik jamoani yangiliklar kiritishga tayyorlash strategiya bilan tanishtirish, yangiliklar kiritishni rejalashtirish, maqsadni, kutilayotgan samaradorlik va asosiy talablar bilan tanishtirish. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash.

4-Mavzu: Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarni shakllantirish texnologiyasi. (4 soat)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muammoliy o'qitish texnologiyalari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatiga innovatsion yondashuv.



O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“Tanishuv” treningi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bir biri bilan yaqindan tanishtirish, nazorat qilish, tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur trening orqali ta'lim oluvchilarning munosabati, jamoada ishlashi, maxorati, aql-idroki, bilimi bo'yicha tashhis qilinadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: “Tanishuv” treningi darsning boshida yangi gurux tashkil etilganda o'tkazish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, qo'shimcha topshiriqlar yoki savollarni kiritish mumkin.

Namuna:

1. Siz kim va nima uchun bu yerga to'plandingiz?
2. Sizning maqsadingiz!
3. Kim bilan hamkorlik qilasiz?
4. Kimga g'amxo'rlik qilasiz?
5. Sizning kuchsiz tomonlaringiz!
6. Sizning kuchli tomonlaringiz!
7. Pedagogik texnologiya haqidagi tushunchangiz?
8. Innovasiyaga tarif bering?
9. Fan xakidagi fikringiz!

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	<ul style="list-style-type: none">• kuchli tomonlari
W – (weakness)	<ul style="list-style-type: none">• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	<ul style="list-style-type: none">• imkoniyatlari
T – (threat)	<ul style="list-style-type: none">• to'siqlar



Namuna: Oliy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash yo'nalishlari SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan ilg'or innovasion texnologiyalardan foydalanishning kuchli tomonlari	yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagoglarni tayyorlash.
W	Pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi kuchsiz tomonlari	innovasiyalardan mohirona foydalana olishi.
O	Maktabgacha ta'lim pedagogikasining umumiy tavsifi (ichki)	mazmuni
T	To'siqlar (tashqi)	mohiyati.

“Xulosalash” Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan ilg'or innovasion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagoglarni tayyorlash.

(Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.



Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna: Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning konseptual asoslari

Maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishning eng muhim shartlari					
psixologik-pedagogik nazariyani egallash		o'z g'oyalarni yagona konsepsiya qilib jamlash		yangilikni joriy qilish	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa: Maktabgacha ta'lim muassasasining ishiga innovatsiyalarning joriy etilishi – maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning eng muhim shartlarini amalga oshirish					

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Bo'lajak maktabgacha ta'lim o'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligini tarkib toptirishda xatolik kelib chiqdi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish



faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Test


IO'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish nima deyiladi?

- A. kreativlik
- V. ko'nikma
- S. refleksiya



Qiyosiy tahlil

- Pedagogikaning zamonaviy tendensiyalardan foydalanish ko'rsatgichlarini tahlil qiling?



Tushuncha tahlili

- INSERT qisqarmasini izohlang...



Amaliy ko'nikma

- Mamlakat iqtimodiyotini va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv reja namunasini ishlab chiqing?


«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.



Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish

Fikr: Ta'lim sifatini boshqarishga innovasion yondashuv.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Blis-o'yin metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

Ishtirokchilar mashg'ulot qoidalarini bilan tanishtiriladi;

o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

Operasion (voqeiy) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea-hodisani bajarilishi mashq qilinadi. Operasion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda konkret shaxsning xulqi, xatti- harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.



Tadbirkorlik teatri.

Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish, ular bilan muloqot o'rnatishga o'rgatishdir.

Psixodrama va sotsiodrama.

Bu ham o'ziga xos «teatr», lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko'zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o'zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

Namuna: Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari.

T-texnologiyasi

Metodning maqsadi: Ta'lim maqsadlari nuqtai nazaridan yaxlitlikni, tizimlilikni va funksional to'liqlikni saqlab qolgan holda standartlashtirish ob'ektlarining (ta'lim mazmuni birliklarining va boshqalarning) murakkabligini eng kam darajaga keltirish.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi: Ushbu pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish vazifalarini afzalliklari va kamchiliklarini yoritish.

Namuna: Maktabgacha ta'lim pedagogikasining umumiy tavsifi, mazmuni va mohiyati

T-texnologiyasi

Afzalligi	Kamchiligi

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash



imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:


- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralarda ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari

Ven diagrammasini to'ldiring



Xulosa: Zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilinishi natijasida, jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash

Klaster metodi

Metodning maqsadi: Multimedia texnologiyasidan foydalanishning asosini tinglovchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:


O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Psixologlar ta'kidlaydilar, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bogliq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi.

Namuna: Maktabgacha ta'lim muassasalarida mul'timedia texnologiyalarini joriy etish.



Klaster metodi





III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqaruv tizimini takomillashtirish.
2. Maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning dolzarb masalalari.

Tayanch tushunchalar: Innovasiya, mexanizm, ijodkor, boshqarish, texnologiya, inson, muloqat, faoliyat, munosabat, shaxsiyat, zamonaviy, muassasa, konseptual, rivojlanish.

1. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqaruv tizimini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq: maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihati belgilab berildi.

Xususan, farmonda qayd etilganidek, mamlakatimizda so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamaygan bo'lib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil qiladi, xolos. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi ham zamonaviy talablarga deyarli javob bermaydi.

Qolaversa, hududlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'proq o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar faoliyat yuritayotgani bois maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar yetarlicha o'tilmayotgani, ko'plab bog'chalar binolari talabga javob bermasligi, ayniqsa, bolalar qamrovi tumanlar kesimida olinganda, 18 — 20 foizni tashkil etishi hech kimga sir emas.

Mazkur hujjatda sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalardan keng foydalanish, ularga shart-sharoitlar yaratish, bolalar qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirish, yosh avlodda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, ularning sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini tashkil qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish kabi juda dolzarb masalalar qamrab



olingan. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar hamda pedagog xodimlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash ham o'ta muhim masalalar sifatida ko'rsatilgani, ayniqsa, e'tiborga molik.

Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tuzilishi bu boradagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz. Endi idoraviy mansubligidan qat'i nazar, davlat tasarrufidagi barcha maktabgacha ta'lim muassasasi mazkur vazirlik tizimiga o'tkaziladi.

Vazirlik zimmasiga bir qator muhim vazifalar yuklatildi. Xususan, maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olib, maktabgacha yoshdagi bolalarni har jihatdan intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, davlat hamda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga farzandlarimizni maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich to'liq qamrab olinishini ta'minlash ana shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin hamda o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, tajribali yuqori malakali, kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar va tarbiyachilarni o'quv-tarbiya jarayoniga jalb qilish kabilar ham vazirlikning diqqat-e'tiborida bo'ladi.

Umuman, hujjatlar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sanalmish maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylanadi.

O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil

19 oktyabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi", deb ta'kidladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi hamkorligida iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni tanlab olish va ularni oliy ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlashni tashkil etish uchun har bir oliy ta'lim muassasasi huzurida bittadan akademik litsey ochish va faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari olib borildi. 10-11-sinflar joriy etilib, kollejlarda kontingent qisqarishi munosabati bilan mavjud moddiy texnika bazasidan samarali foydalanish maqsadida 7 ta kollej va akademik litsey negizida yangi 3 ta oliy ta'lim muassasasi filiallari va 1 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi. Muloqot chog'ida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini ortiqcha hisobotlar, turli byurokratik topshiriqlardan ozod etish, ularning ilmiy salohiyatlarini ta'lim mazmuni va sifatini yanada yaxshilash, ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasiga to'xtalib o'tdi. Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biri ekanini ta'kidladi. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir. Majlisda davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, mazkur muassasalarga bolalarni 100 foiz qamrab olishga qaratilgan alohida dastur ishlab chiqish, boshlang'ich ta'lim muassasalariga qator imtiyozlar berish, shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi malaka oshirish institutlarida ta'lim mazmunini sifat jihatdan tubdan o'zgartirish, ularni eng ilg'or oliy ta'lim muassasalari tarkibiga o'tkazish orqali umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga eng kuchli va tajribali professor-o'qituvchilar ta'lim berishiga erishish borasida muhim vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respubliasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrda 929-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida» gi qaroriga asosan



ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat nazorati, maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan rahbarlikning tekshirish shakllariga aytiladi.

Bu - Mustaqil Davlatimizning qaror, xukumat, ko'rsatma, yo'l-yo'riqlarini, «Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi qonun» asoslarini bajarilishini, maktabgacha ta'lim yoki tashkilotlar tomonidan, maktabgacha ta'lim ahvolini tekshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim bilan bog'liq bo'lgan ariza, imkoniyat, iltimoslarni tekshirishdir. Bu - «Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom», «Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi», «Maktabgacha ta'lim dasturi», «*Ilk qadam*» davlat dasturlarini bajarilishi ustidan nazoratdir.

O'quv-tarbiya jarayoniga innovasion texnologiyalarning kirib kelishi ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablarni muvaffaqiyatli hal etishda ahamiyatlidir, shuningdek darsning sifat va samaradorligini oshirib ta'limdan ko'zlangan natijaga erishishni osonlashtiradi. Shu asosda o'quv –tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, bu o'z faoliyatini oqlaydi va raqabatbardosh kadrlar tayyorlashda eng muhim yutuqlarga erishishni ta'minlaydi. Ta'limning mazmuni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimidir. O'quvchi ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashi, ahloqi shakllanadi, hayotga, mehnatga tayyorlanadi. Ta'lim mazmuniga insoniyat to'plagan barcha ijtimoiy tajribalar kiradi. Uning mazmuni, xajmi, ijtimoiy to'zumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan-texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni uning mazmuniga tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri haqidagi bilimlar, hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab-chiqarishdagi yangiliklar kiritiladi. Ta'limning mazmuni o'zgaruvchan, u doimo yangilanib turad Ta'lim mazmuni ilmiy asoslagan DTS, O'quv rejalari, dasturlari va darsliklarida ifodalanadi. Xususiy metodika nuqtai nazari bo'yicha «ta'lim» aynan bir o'quv fani asosida o'qitish va o'qish faoliyatlarini birgalikda amalga oshirishni anglatadi.

Pedagogika fani nuqtai nazaridan qaralganda esa «ta'lim» o'qituvchi va o'quvchi ta'sirining majmui bo'lib, uning natijasida o'quvchining aqliy salohiyati (intellekti), ruxiyatini rivojlantirish ma'nosini bildiradi.

Bilim-tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qilinadigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishidir. Bilimlar qarash, g'oya, ta'rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, omil va boshqa shakllarda beriladi;

Ta'lim jarayoni tarkibiga ko'ra, o'ta murakkab didaktik hodisadir. Agar bu jarayonga o'qituvchi faoliyati nuqtai nazaridan yondoshsak, «o'qitish jarayoni», o'quvchilar faoliyati nuqtai nazaridan, esa «uquv jarayoni» iboralari ishlatiladi.



O'qitish eng qadimiy faoliyat turlaridan biridir. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida alohida kasb sifatida ajralib chiqqan. Kishilar o'qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanadi.

Ta'lim ma'lum bosqichlar asosida amalga oshiriladi: o'rganiladigan narsa-hodisalarni bevosita yoki bilvosita idrok etish; oldin o'rganilgan bilimlarni xotiraga, ya'ni esga tushirish; bilimlarni amalda qo'llash, fikrlash, ularning umumiy va xususiy alomatlarini ajratish.

Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkaziladi, ta'limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida– bola o'z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarida kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o'zaro muomala tajribasini oladigan joydir, maktabgacha ta'lim muassasalarida bola o'z ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo'lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o'zining kasbiy va shaxsiyat fazilatlarini rivojlantiradi, rahbar bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi; muassasa ota-onalarning o'z bolalari uchun ko'zda tutgan kelajagi yuzasidan fikrlari xususiyatlarini inobatga oladi va ularni bolalar bilan, hamda ta'limiy jarayonning barcha ishtirokchilari bilan konstruktiv-hamkorlik munosabatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltiradi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan ilg'or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagog zarur bo'ladi. U pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi, moslashuvchan fikrlashga ega bo'lishi, innovatsiyalardan mohirona foydalanishi lozim.

Innovatsion salohiyatning qismi bo'lgan qabul qilish yangilikni sezish, unga tayyorlik, muammo bilan tanishish, uni hal etishning mavjud yo'llarini tahlil qilish, yo'lini tanlash, qaror qabul qilish oqibatlarini qabul qilish bilan belgilanadi.

Innovatsion ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning mazmuni an'anaviy faoliyatdan ancha farq qiladi.

Birinchidan, faoliyat mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqish faoliyati ancha murakkablashadi, chunki uning texnologik asosi tez rivojlanadi. U pedagogning maxsus malakalari, ish usullari rivojlantirilishini talab etadi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari faoliyat sifatiga va uning mahsuliga qo'shimcha talablarni qo'yimoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik jarayonning o'ziga xosligi shuki, pedagog markaziy o'rin tutgan an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, bu yerda asosiy diqqat bolaga – uning faolligi, tanlovi, kreativligiga qaratiladi.



Tarbiyachining muhim funksiyasi bolani o'z faoliyatida qo'llab-quvvatlash, uning olamdagi muvaffaqiyatli ilgari lama harakatiga yordam berish, yuzaga keluvchi muammolar hal etilishini osonlashtirish, turli-tuman ma'lumotni o'zlashtirishga yordam berish hisoblanadi.

K. Rodjers, A.B. Orlov va S.Ya. Romashina jahon ta'limiy hamjamiyatida shu sababli yangi atama – fasilitator – o'qishga yordam beruvchi, osonlashtiruvchi, ko'maklashuvchi shaxs paydo bo'lib, ishlatilayotganligini qayd etganlar.

Uchinchidan, bilish materialini taqdim etish va tajribani berish yo'llari pedagog va bolalarning intensiv muloqotini ko'zda tutadi, pedagogning barcha bolalar bilan umumlashgan aloqasi ustuvor bo'lgan, lekin tarbiyachining alohida bolalar bilan o'zaro munosabati ancha kam bo'lgan an'anaviy ta'lim turiga nisbatan zamonaviy ta'limda ushbu ta'lim sub'ektlari o'rtasida ancha faolroq va qiziqarli o'zaro munosabatlar bo'lishini talab qiladi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zaruriy shartlari pedagogning salohiyati va harakatlari, uning yangilikni sezishi, ochiqligi va fasilitatsiyasi bo'ladi.

Pedagog va bolaning ta'lim jarayonida tutgan o'rning o'zgarishi o'zaro munosabatlar, eng avvalo pedagoglar o'zaro munosabatlari – integratsiyasi va o'zaro moslashuvi tizimini qayta qurish, shuningdek «pedagog – bola –ota-onasi» uchburchagida o'zaro munosabatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu, bir tomondan, maktabgacha ta'lim muassasasida innovatsion jarayonning zaruriy sharti, boshqa tomondan –uning natijasi va muvaffaqiyatining ko'rsatkichi bo'ladi.

Boshlang'ich darajada innovatsiyalar yoki ayrim kursning, yoki kurslar blokining (masalan, ekologik yoki gumanitar) yangi mazmunini yaratishga; yoki ta'lim jarayonining tuzilmasini yaratishning yangi usullarini ishlab chiqishga; yoki ta'limning yangi texnologiyalari, yangi shakllari va usullarini ishlab chiqishga qaratiladi.

Istalgan darajadagi innovatsiyani nazariy asoslangan, maqsadga qaratilgan va amaliyotga yo'naltirilgan yangilik deb qarash mumkin. Innovatsiya har qanday darajasida 4 bosqich davomida rivojlanadi:

- nazariy, ya'ni innovatsiyalarni psixologik-pedagogik tahlil asosida asoslab berish; innovatsion jarayon qanday rivojlanishi, hamda uning salbiy va ijobiy oqibatlari qanday bo'lishini prognoz qilish;
- tashqiliy-siyosiy;
- tahliliy (olingan natijalarni umumlashtirish va tahlil qilish);
- joriy etish.

Bosqichlardan har biri o'z vazifalari va mazmuniga ega. Eng murakkab bosqich birinchi bosqichdir, chunki pedagogik fikr yuritish psixologik-pedagogik nazariyani egallash, o'z g'oyalarini yagona konsepsiya qilib jamlash, innovatsiyalar zarurligi



yoki muqarrarligini asoslash, yangilikni joriy qilishga ko'maklashuvchi omillarni ajratib ko'rsatishni ko'zda tutadi. Ushbu bosqich rejalashtirilgan yangilikning axborot ta'minotini ham ko'zda tutadi. Birinchi bosqichda puxta ishlash innovatsiyalarni pedagogik jarayonga joriy qilish bosqichida muvaffaqiyatga olib keladi.

Ikkinchi bosqich – yangilikni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi yangi tuzilmalarni yaratishdir. Bu tuzilmalar mobil, mustaqil va erkin bo'lishi lozim.

Uchinchi bosqichda innovatsion jarayon qaysi darajada amalga oshirilayotganini anglab yetish; umuman ta'lim muassasasining ahvolini (yoki muayyan fanni o'qitishning ahvolini) yangilikni joriy qilish natijasida erishilishi ko'zda tutilgan prognoz holatiga solishtirish lozim. Agar muvofiqlikka erishilmasa, nega? Degan savolga javob topish lozim.

Joriy qilish bosqichida muvaffaqiyat ikkita omilga bog'liq: yangilik amalga oshayotgan o'quv yurtining (yoki ta'lim muhitining) moddiy-texnik bazasi, va pedagogik xodimlar va rahbarlarning malakasi, ularning umuman yangiliklarga munosabati, ularning ijodiy faolligi. Har qanday innovatsiyalar xodimlardan yuksak hissiy va aqliy kuch sarf etilishini talab qiladi, demakki, bu mehnatga shunga mos haq to'lanishi lozim. Ushbu muammolar tufayli (o'qituvchilar korpusining kasbiy mahorati; moddiy-texnik bazasi va mehnatning ijtimoiy baholanishi) ta'limdagi innovatsiyalar amalga oshguncha uzoq va qiyin yo'l o'tadi.

Agar an'anaviy ta'limning innovatsion ta'limdan farqlari tizimini tahlil qilib, innovatsion faoliyatni amalga oshirishning pedagogik usullarini aniqlasak, ushbu tahlil ta'lim texnologiyalarini o'zgartirish lozimligi haqidagi xulosaga olib keladi.

Ta'lim texnologiyasining eng ko'p tarqalgan ta'rifi quyidagicha: ta'lim texnologiyasi – bu o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan, o'qitish shakllari, uslublari va vositalarining tizimidan iborat bo'lgan ta'lim mazmunini amalga oshirish usuli bo'lib, ushbu tizim qo'yilgan didaktik maqsadga eng samarali erishishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, ta'lim madaniyatning bir qismi bo'lib, uning tubigacha amalga oshiradigan o'zgarishlar insonlarning hayotiy faoliyati usullarini o'zgartiradi, demakki, ta'limda innovatsiyalar yuzaga kelishiga olib keladi. Inson sivilizatsiyasining postindustrial davrida, ya'ni ko'p olimlar tomonidan axborot-innovatsion davr deb ataladigan davrda bilim va ta'lim tub asosiy tushunchalarga aylanadi.

2. Maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning dolzarb masalalari.

Maktabgacha ta'limni tashkil etish va unga rahbarlik qilish sohasining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim



to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi konsepsiya va nizomda ko'rsatib berilgan maqsad va vazifalar tashkil etadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasasi mustaqil ravishda o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan, qonunchilikka va pedagogik tamoyillarga zid bo'lmagan har qanday qarorlar qabul qilishga haqlidir.

Dars o'zining didaktik maqsadi, mazmuni vositalari, metodlari bilan bog'lik xolda izchillikka, ilmiylikka, mantiqiy tuzilishga ega bo'lish va mazkur tuzilish ta'lim jarayonining konuniyatlariga mos bo'lishi lozim. Dars tuzilishini aniqlash aniklash uchun o'quv materiallaridagi ta'lim mazmunini uning mazmundagi tarkibiy kislmlar, mazkur tarkibiy kislmlarni ukuvchilar tomonidan o'zlashtirish uchuli ya'ni ta'lim jarayonining borishini xisobga olish zarur. Bu konunga kura tabiatdagi xamma narsa xodisa va jarayonlarda ichki ziddiyatlar uzaro alokadorlik bir-birini inkor etish xolatida bo'lgan qarama - qarshi tomonlar mavjud. Qarama - qarshiliklar birligi va kurashi tarakkiyotga ichdan turtki beradi, ziddiyatlarning usib ma'lum boskichda ziddiyatlarga barxam berishga yangi, ziddiyatlarning paydo bulishiga olib keladi. Didaktikada karama-karshiliklar birligi va kurashi qonuni ta'lim jarayonining xarakatlantiruvchi kuchi sifatida muxim rol uynaydi. O'quvchilar ta'lim jarayonida faktlar, ma'lumotlar, bilim kunikma va malakalarni egallab borishida, ularda kuzatuvchanlik va xissiylikni, tafakkur va ravon nutkni, xotira va ijodkorlik tasavvurlarni chukur saviyada uzlashtirishni tarkib toptirishda yuzaga keladi. Umuman noan'anaviy usullarni dars jarayoniga tadbik etish murakkab jarayon bulib bir kator tusiqlarga duch kelishi tabiiy. Birinchidan; ma'lumki uzok yillik mustabid tuzum davrida bir kolipga tushib, fakat ma'lum doiradagi buyruklar asosida ish yuritilar edi. Ana shu tizimdagi oddiygina bir dars jarayonini oladigan bulsak, dars jaryonidagi asosiy kuch boshkaruvchanlik xisoblanadi. Ya'ni buyruq beruvchi shaxs o'qituvchi, buyruqni bajaruvchi alim oluvchidir. Agar ta'lim oluvchi o'qituvchining buyrug'ini bajarmasa, u ta'lim oluvchi "Darsni o'zlashtirmagan, intizomsiz o'quvchi" bo'lar edi. Yaxshi o'quvchi o'qituvchini topshirigini bajargan o'quvchi edi. Uning tashabbuskorligi, ijodiy fikri inobatga olinmas edi. Ana shunday buyrug'bozlik muxitida ta'lim olgan o'quvchilarda qat'iyatsizlik, o'ziga ishonchsizlik, o'zining fikriga ega bo'lmagan shaxs sifatidagi ong darajasi shakllanmagan. Natijada o'quvchilarda o'zganing qaramlik xissi kuchaygan. Ammo, yukoridagi ta'kidlangan illatlardan xanuzgacha kutilganimiz yuk. Noan'anaviy ta'lim usullari shaxsni ongli fikrlashga va mustaqil faoliyaat yuritishga o'rgatadi.

Ikkinchidan, kadrlar masalasi xozirgi kunda eng muxim masala sanaladi. Shuning uchun xozirgi kunda kadrlar masalasiga talab kuchayib bormokda. Barkamol avlod orzusi kitobida "O'kituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak". Xaqiqatdan xozirgi kunda o'qituvchilardan



izlanuvchanlik, o'quvchilar bilan ishlashda buyruqbozlik emas, balki ularning dunyoqarashini keng tarzda shakllantira oladigan chukur bilim talab qilinadi. o'quvchilarda erkin izlanish qobiliyatini uygotishni talab qiladi. Bu esa o'qituvchidan maxoratni va o'ziga xos metodik tayyorgarlikni talab etadi. Masalan ta'lim metodlariga to'xtaladigan bo'lsak, bu ham o'ziga xos jarayon bo'lib, yaangicha yondashuv, yaangicha mazmun kasb etadi. Xozirgi davrda bir xil kolipdagi ta'lim metodlari talabga javob bermayapti. Bu o'rinda xam ta'lim tajribasiga murojaat qilishimiz maqsadga muvofik. Masalan o'tmishda madrasalarda mashg'ulotlar davomida muammolar qo'yish va ularni munozaralar asosida hal etish, tajriba-sinov, kuzatish, sharxlab o'rganish, mustaqil mutolaa, bilimlarni uzoq esda saqlab qolish uchun ifodali, qiroat bilan o'qish, yod olish, chiston-jumboqlarni yechish, xusnixat muvashshaxlar yozish kabi metod va usullar qo'llanilgan. Yirik madrasalarda o'tadigan mashg'ulotlarga nufuzli olimu ulamolar taklif etilgan. Ular ma'lum muammolarni talabalar bilan birgalikda ilmiy munozaralar, savol-javoblar, suxbatlar asosida hal etganlar.

Demak, ana shunday ta'lim usullaridan dars jarayonlarida qo'llash ijobiy natijalarni olib kelishiga shak-shubxa yo'q.

Pedagogik faoliyatn jarayonida noanaviy ta'lim usullaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

Mustaqillik sharoitida talaba yoshlarga zamon talablariga mos tarzda bilim berish va ta'limning noan'aviy usullaridan dars jarayonida kengroq qo'llashga ehtiyoj ortib bormorqda. Chunki noan'aviy ta'lim usullari hozirgi yaangi zamonaviy ta'lim usullaridan tortib pedagogik texnologiyaa usullari, ta'limning samarali metod va vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarga bilim berishga keng imkon beradi. Hozirgi kunda o'qitish jarayonining asosiy vazifasi ta'lim mazmunini yaangilashning uzluksiz tizimini ro'yyobga chiqarishdan iborat. Bunday asosiy maqsad har jixatdan rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Fikrlaydigan insonni, yaangicha iqtisodiy sharoitda, aniqrog'i bozor iqtisodi sharoitida har qanday o'zgarishlarga tayyor tura oladigan inson qilib tarbiyalash unga yaangi-yaangi texnologik axborotlarni qabul qilishga tayyorlash uzluksiz talimning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun ta'lim mazmunini yaangilashning o'zi kifoya qilmaydi, balki ilg'or tajribalarni o'rganib, noan'aviy ta'lim usullarini egallash zarur bo'ladi. Noan'aviy ta'lim usullari o'ziga ko'p masalalarni qamrab oladi: jumladan nazariy va amaliy bilimlarni ananaviy vositalari ko'rsatib bo'lmaydigan ko'pgina jarayonlarning dinamik modellarini kom'pyuter yordamida animatsiya qilib mult'mediya maxsulotlari tayyorlash va ulardan foydalanib kom'pyuter darslarini o'tkazish va shu dasturga kiritilgan ta'lim mavzusiga oid test savollari yordamida talabalarni o'zlashtirish darajalarini aniqlash, dars jarayonida talabalarni faollashtiruvchi xorijiy davlatlar.



Amerika, Anglia, Fransiya, Yaaponiya, olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan no'anaviy ta'lim shakllari ya'ni innavasion texnologiyadan foydalanish, shuningdek mavzuga oid Respublika pedagog olimlarining pedagogik qarashlari va ilg'or g'oyalaridan foydalanish imkonini beradi. Kom'pyuter darsi sistemasini yaratish va o'quv jarayoniga joriy qilish noan'anaviy ta'lim usullaridan hisoblanadi. Bu usulning dolzarbligi, katta e'tibor va imkoniyatga ega ekanligi bilan asoslanadi. Komp'yuterga yozilgan dars dasturining afzallik tomoni shundan iboratki, mavzu yuzasidagi murakkab jarayonlarni haqiqatga yaqin dinamik modeli bilan yaqqol tanishadi. Boshqa xech qanday o'qitish usulida talaba bunday imkoniyatga ega bo'lmaydi.

O'quv jarayonining axborotli hamda texnik vositalar yordamida uyushtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa noan'anaviy ta'lim shakllarining asosiy tamoyillari va ularni mohiyatini bilish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Noan'anaviy ta'limning yaxlitlik tamoyili o'zida ikki jihatni aks ettiradi.

➤ Birinchisi;

- ta'lim

- tarbiya bilan shaxs kamolotini mushtarakligi,

➤ ikkinchisi;

- noan'anaviy ta'lim usullarining muayyan tizimga ega ekanligidan kelib chiqib ta'lim berishni nazarda tutadi.

Talim sohasida ilmiy izlanishlar olib borish, taxlil qilish, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qitishning noan'anaviy shakllaridan foydalanish va ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish dolzarb muammolardan sanaladi.

2-Mavzu: Maktabgacha ta'limning pedagogik jarayoniga innovatsion yondashuv.

Reja:

1. Oliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni qo'llash.

2. Xorijiy ta'limdagi tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatorlik faoliyati tushunchalarini joriy etish.

Tayanch tushunchalar:

Tamoyil, rag'bat, metod, qonuniyatlar, funksiyalar, rejalashtirish, maqsad, modul, predmet, tyutor, edvayzer, fasilitator, moderator.

1. Oliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni qo'llash.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari uzluksiz ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sirini



ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida, zamonaviy ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs imkoniyatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishining sharti sifatida ta'lim paradigmalari takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari funksional va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy sohalar hamda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash sharoitida muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida ta'limiy, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni bajarmoqda. Ularning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash, kasbiy yetuklik va yuksak ma'naviyatni shakllantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Pedagogika fani bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta'lim chet el tajribalarini o'rganish uni ilmiy tushunish ilg'or g'oyalardan milliy ta'lim amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. "Kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi". Shu bilan birga milliy g'oyalar va an'analarda qurilgan ta'lim har doim milliy rivojlanish masalalariga javob berishini esda tutish kerak. Hozirgi zamon maktablarida pedagogik jarayonni tashkil qilish ta'lim tarbiyaning usul, vosita va shakllarini tanlash faqat bilim, ko'nikma, malakalarga yo'naltirishdan tashqari ularni bilish jarayoni, xissiy kechsinmalarini o'zlashtirishga alohida e'tibor berish zarur. O'qituvchi jarayonini tashkil etish shakllaridan biri dars, o'zining didaktik maksadi, vazifasiga ko'ra murakkab pedagogik ob'ekt sanaladi.

Ta'lim sifatini boshqarishga ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish xorijda XX asrning 20-yillarida, mamlakatimizda esa 50-yillarida boshlangan edi. Bizda bu ish uzoq vaqt mobaynida jahonda amalga oshirilayotgan ishlardan ajralgan holda olib borildi. Agar chet elda ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish usullarini izlash ishlari avval boshdanoq ijtimoiy boshqaruvning umumiy nazariyasi yutuqlari asosida amalga oshirilgan bo'lsa, mamlakatimizda asosan pedagogika nazariyasi qoidalariga tayangan edi. Ammo 80-yillarning o'rtalaridan boshlab bu uzilish jadallik bilan bartaraf etila boshladi.

Ijtimoiy boshqarish fanini rivojlantirish O'zbekistonda va xorijda ta'limni boshqarish muammolari yechimini nazariy jihatdan idrok etishga va izlashga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ijtimoiy tashkilotlarni boshqarishning umumiy g'oyalari ta'lim sohasida boshqarish muammolarini ilmiy ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ta'limni boshqarish qonuniyatlari boshqaruv jarayonida turli elementlar va hodisalarning ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan, takrorlanuvchi o'zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular umumiy va xususiyga bo'linadi. Umumiy qonuniyatlari boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo'lsa, xususiylari ayrim ta'lim tashkilotlari



va muassasalarining amal qilishi bilan bog'liq.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida Koreya modeli aks etishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Koreya Respublikasiga 2017 yil 22-25 noyabr kunlari davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o'tkazilib, tajriba almashinuvi, O'zbekistonda eksperimental tarzda bolalar bog'chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini o'rganib chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Safar doirasida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta'lim va boshqa turdagi muassasalariga tashriflar uyushtirildi va ularning faoliyati o'rganildi, jumladan bog'chalarning o'ziga xos jihatlari, qo'llanilayotgan ta'lim berish uslublari, moliyalashtirish va to'lov tizimlari, pedagogik xodimlarning malaka darajasi va xizmat sharoitlari, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta'minot hamda sohalariga tegishli dasturlar va uslublar atroflicha o'rganildi.

Pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo'qligi, davlat bog'chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o'zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiena ko'nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlar Koreya maktabgacha ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan yana bir jihat, davlat jamiyatning eng himoyalangan qatlamlari, kam ta'minlangan oilalar va nogiron bolalarga, birinchi navbatda g'amxo'rlik ko'rsatadi va bog'chalarga qabul davomida ularga ustuvorlik prinsipini qo'llaydi va shu sababli ham, Koreyada inklyuziv ta'lim prinsiplari tahsinga sazovordir.

Koreyaning ta'lim tizimiga kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan va tasarrufida maktabgacha ta'lim muassalari bo'lgan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Sanmyong Universiteti, (Sangmyung University) hamda Chung-Ang Universiteti (Chung-Ang University) bilan Hadli kelishuvlar imzolandi, shuningdek Chonnam Milliy Universiteti (Chonnam National University) bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Kelishuvlar va Memorandum doirasida quyidagi sohalardagi hamkorlik nazarda tutilgan: talabalar, ilmiy-pedagogik va boshqaruv mutaxassisleri o'rtasida tajriba almashinuvlari, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishga



qaratilgan choralar, jumladan eng yangi dasturlar va uslublarni joriy qilish, hamkorlikda tadqiqotlar, konferensiyalar, ko'rgazma va seminarlarni amalga oshirish, maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha maxsus qo'shma magistrlik va doktorlik dasturlarini tashkil etish, shuningdek O'zbekistonda eksperimental ravishda Koreya tizimiga asoslangan eksperimental bog'chalarni tashkil etish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan.

Maktabgacha ta'lim vazirligi delegatsiyasining Koreya Respublikasiga tashrifi davomida bolalarning erta rivojlanishi va maktabgacha ta'lim tizimi sohasiga ixtisoslashgan nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari bilan uchrashuvlar ham o'tkazildi. Jumladan, 2017 yilning 23 noyabr kuni Koreya bolalar parvarishi va maktabgacha ta'lim masalalarini o'rganish Instituti (KICCE) bilan Hadli kelishuv imzolandi. Kelishuv doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi va KICCE hamkorligida qo'shma tadqiqotlar o'tkaziladi, pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali tajriba almashinuviga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi, seminarlar va konferensiyalar tashkil etiladi. Shu bilan bir qatorda hamkorlik asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalarining ishlab chiqilishi, ta'lim dasturlari va standartlarining qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim statistikasini joriy qilish nazarda tutilgan.

Seul bolalarni erta rivojlantirishga ko'maklashish Instituti (Seoul Early Childhood Education Promotion Institute) bilan 2017 yilning 22 noyabr kuni o'tkazilgan uchrashuv chog'ida qo'shma tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini beruvchi hamkorlikdagi ilmiy-amaliy tadqiqot muassasalarini tashkil etish, o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash borasida kelgusida hamkorlik bitimlarini imzolash kelishib olindi.

Yana bir samarali uchrashuv – Maktabgacha ta'lim vazirligining eng muhim salohiyatli hamkori – Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligining Maktabgacha ta'lim va bola parvarishi Departamentida bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Koreya tomoni O'zbekiston delegatsiyasiga Koreyada maktabgacha ta'lim va bola parvarishi bosqichlari, sohani rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish prinsiplari, yangi NURI maktabgacha ta'lim Milliy dasturini joriy qilish jihatlari haqida ma'lumot berdilar. Shuningdek, to'lov tizimlari, ta'lim muassasasi turidan kelib chiqqan holda narxlarni belgilash prinsiplari, Davlatning maktabgacha ta'limga yo'naltirayotgan xarajatlari, shuningdek istiqboldagi rejalar, jumladan, maktabgacha ta'lim strukturasi Davlat bog'chalari ulushini kengaytirish, elektron qabul tizimini joriy qilish, pedagoglar malakasini oshirish hamda sohani takomillashtirish tendensiyalari haqida ham ma'lumotlar berildi.



Koreya Respublikasining tajribasi albatta e'tiborga molik va ishonamizki, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida bu boradagi Koreya modeli elementlari albatta o'z aksini topadi.

Ta'limni ongli boshqarishning ustuvor samaradorligi qonuniydir, chunki unda kechayotgan jarayonlarni rejali boshqarish tizimi amalda ushbu jarayonlarni beixtiyor tartibga soladigan boshqarish tizimlaridan samaraliroqdir. Hozirgi ta'limda boshqarishning barcha darajalarida dasturiy-maqсадli yondashuv, tizimli yondashuv va tahlil keng qo'llanilayotganligi buning dalilidir.

Ta'limga tatbiqan bu tamoyilning roli juda katta, chunki tarmoqning xususiyati ijro intizomi darajasigagina emas, balki moliyaviy intizomga hamda vazirdan tortib o'qituvchigacha bo'lgan barcha xodimlarning ichki intizomiga oshirilgan talablar qo'yilishini taqozo etadi. Shu bilan birga, intizom xodimlarning tashabbusini bo'g'ib qo'ymasligi va ishga ijodiy munosabatda bo'lish uchun imkoniyat qoldirishi kerak.

Rag'batlantirish tamoyili, eng avvalo, moddiy va ma'naviy rag'batlardan foydalanish asosida mehnat faoliyatini motivatsiyalashni ko'zda tutadi. Moddiy rag'batlantirish xodimlarning mehnat natijalaridan shaxsiy iqtisodiy manfaatdorligiga, ma'naviy rag'batlantirish esa asosan xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatishga tayanadi. Xodimlarning turli ma'naviy ehtiyojlari, ya'ni mansublik, taalluqlilik va muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyojlari undovchi sabablar bo'lishi mumkin.

Binobarin, rag'batlantirish tamoyili mazmunini, ko'pincha amaliyotda bo'lganidek, faqat ish haqiga bog'lab qo'yish noto'g'ri. Rag'batlantirish, shuningdek, ma'naviy rag'bat va sabablardan foydalanishni, xodimlarga adolatli munosabatda bo'lishni ham ko'zda tutadi.

Ierarxiklik (ko'p pog'onalilik) tamoyili boshqaruv mehnatining vertikal taqsimlanishini, ya'ni, boshqaruv darajalarining bo'linishini hamda boshqaruv quyi darajalarining yuqori darajalarga bo'ysunishini ko'zda tutadi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini shakllantirishda, boshqaruv apparatini tuzishda, kadrlarni joy-joyiga qo'yishda ushbu prinsip hisobga olinadi.

Boshqaruvning barcha tamoyillari bir-biri bilan uzviy bog'langan va biri ikkinchisini taqozo qiladi. Masalan, rejasiz, bilimdon bo'lmasdan, intizomsiz va ierarxiksiz tashkilotning aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini ta'minlab bo'lmaganidek, boshqaruvning boshqa (aniq maqsadga yo'naltirilganlik, rejali, bilimdonlik, rag'batlantirish, intizom) tamoyillarini inkor etgan holda boshqaruv tizimining aniq faoliyat yuritishiga erishib bo'lmaydi.

Boshqaruvning umumiy tamoyillari bilan birga yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mahalliy xususiyatga ega bo'lgan va faqat ayrim boshqaruv jarayonlarini hamda boshqaruv jihatlarini tartibga soladigan xususiy tamoyillari mavjud. Masalan, ta'lim muassasalarini boshqarishga tatbiqan, odatda, boshqaruv jarayonlarining uzluksizligi



ajratib ko'rsatiladi.

Boshqaruv qonuniyatlari va tamoyillari boshqarish funksiyalari bilan uzviy bog'liqdir.

Ta'limni boshqarish funksiyalari - bu ular boshqaradigan kichik tizim boshqaruv ob'ektiga ta'sir ko'rsatishida yordam beradigan faoliyat turlaridir. Boshqaruv funksiyalari umumiy va xususiy (maxsus) funksiyalarga bo'linadi. Umumiy funksiyalar boshqaruvning barcha ijtimoiy tizimlariga xos funksiyalardir. Xususiy funksiyalar muayyan xususiyatga ega.

Menejmentga tatbiqan strategik rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash, nazorat kabi umumiy funksiyalar ajratib ko'rsatiladi.

Kishilar xatti-harakatida ehtiyojlar va manfaatlar muhim rol o'ynaydi. Ehtiyoj - bu insonning biron-bir kamchilikni fiziologik va psixologik his qilishi, taqdirlash esa inson o'zi uchun qadrli deb hisoblagan barcha narsani his qilishi demakdir. Anglab yetilgan ehtiyojlar harakatga undaydi. Odamlarning faoliyati bilan erishiladigan ehtiyojlarning yig'indisi boshqaruv metodlarining iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy-psixologik singari motivatsion yo'nalishlarini belgilab beradi.

Boshqaruvning iqtisodiy metodlari moddiy motivatsiyani, ya'ni muayyan ko'rsatkichlar yoki topshiriqlarni bajarishga va, ular bajarilgach, ish natijalari uchun iqtisodiy taqdirlashga yo'naltirishni taqozo etadi. Shunday qilib, boshqaruvning iqtisodiy metodlaridan foydalanish ish rejasini shakllantirish va uning amalga oshirilishini nazorat qilish bilan, shuningdek mehnatni moddiy rag'batlantirish, ya'ni muayyan miqdor va sifatdagi mehnat uchun taqdirlashni hamda miqdori muvofiq kelmaganligi va tegishli sifatga ega bo'lmaganligi uchun jazo chorasi qo'llanilishini ko'zda tutuvchi ish haqining oqilona tizimi bilan bog'liqdir.

Boshqaruvning tashkiliy-boshqaruv metodlari qonunga, huquq-tartibotga, lavozimi bo'yicha o'zidan yuqoriroq bo'lgan xodimga bo'ysunishga, ya'ni hokimiyat motivatsiyasiga asoslanadi. Boshqaruvda bu motivatsiya g'oyat muhim rol o'ynaydi. U davlat darajasida qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlarga shubhasiz rioya qilinishinigina emas, boshqaruv xodimlari va ular qo'l ostidagilarning boshqaruv xodimining ko'rsatmasi uning qo'l ostidagilar tomonidan ijro etilishi majburiy qilib qo'yadigan huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilishini ham taqozo etadi. Boshqaruv xodimining qo'l ostidagi xodimlarning ushbu munosabatlarga rioya etmasliklari jazo choralari (tanbeh, hayfsan, ishdan bo'shatish va h.k.) qo'llanishiga olib keladi.

2. Xorijiy ta'limdagi tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatorlik faoliyati tushunchalarini joriy etish.

Pedagogika fani bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning



uchun kasbiy-pedagogik ta'lim chet el tajribalarini o'rganish uni ilmiy tushunish ilg'or g'oyalardan milliy ta'lim amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. "Kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi". Shu bilan birga milliy g'oyalar va an'analarda qurilgan ta'lim har doim milliy rivojlanish masalalariga javob berishini esda tutish kerak.



Bunday ta'limning texnik yoki tashkiliy shakllari turlicha bo'lishi mumkin ba'zan umuman odatdan tashqari tasavvur qilib bo'lmagan ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Ammo bizning chuqur ishonch hosil qilishimizga oxir-oqibat odamning ta'lim olishi natijasi faqat o'quv faoliyati shakllari shu jumladan masofaviy ta'lim bilan belgilanmaydi balki o'quv jarayoni quriladigan tayanch psixologik - pedagogik mazmunga bog'liq bo'ladi. Aynan mana shu mazmunlarini izlab topish milliy mentalitetga nisbatanmasofali ta'lim asoslarini ishlab chiqish boshlang'ich vazifasi hisoblanadi. Bu "narsa" turli ramziy amaliyotlar ekranlarida aks ettirilib namoyon bo'ladi. Fikri sezgilari va harakatlarida moddiylashadi.

Xorijiy ta'limda so'nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

TYuTOR - (*Tutorement*) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

EDVAYZER ((*advisor*)-fransuzcha "avisen" "o'ylamoq") tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyixalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

FASILITATOR - (ingliz tilida. *facilitator*, latincha *facilis*—engil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.



MODERATOR - Qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo'nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lim olish usulidan biri hisoblangan masofali ta'lim mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta'limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o'qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta'limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta'lim tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak.

Chet el ta'lim tizimlarida masofali o'qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o'rganishda ta'lim muassalarida masofali o'qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta'limni didaktik ta'minlash vositalarini tahlil qilishga e'tiborni qaratish zarur.

Solishtirish metodi mohiyatini xitoy olimi X. Shu va N. Chjoular to'la ochib beradilar: "Agarda millat vaqt o'qida o'zining turgan joyini tarixiy yoki "vertikal" solishtirishlar bilan aniqlay olsa shunda u millatlararo yoki "gorizontal" solishtirishlar yordamida dunyodagi o'z o'rnini to'g'risida yaxshiroq tasavvurga ega bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda "vertikal" solishtirish ishonch uyg'otadi "gorizontal" esa realist bo'lishga majbur etadi".

Masofali ta'lim - masofada turib o'quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta'lim muhiti yordamida ta'lim xizmatlari to'plamidan iborat. Masofali ta'lim axborot - ta'lim muhiti foydalanuvchilar ta'lim olish ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ma'lumotlar uzatish vositalari axborot resurslari o'zaro aloqalar protokollari apparat - dasturli va tashkiliy-metodik ta'minotlar sistemali - tashkiliy to'plamidan iborat.

Masofali ta'lim - o'qituvchilarga o'rganilayotgan material asosiy hajmini yetkazib berishni o'qitish jarayonida o'qituvchilar va talablarning interaktiv o'zaro aloqalarini, tinglovchilarga o'rganilayotgan materialni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda o'qish jarayonida ularning olgan bilimlarini va ko'nikmalarini baholashni ta'minlovchi axborot texnologiyalari to'plami.

Keltirilgan tushunchalardan taqqoslash tadqiqotini o'tkazishda dunyoda masofali o'qitish ta'lim muhiti qanday shakllanishiga asosiy e'tiborni qaratish zarurligi ko'rinib turibdi. Shu bilan birga bizni birinchi navbatda ta'limning mana shu sohasi rivojlanishi tendensiyalari qiziqtiradi. Umuman ta'limning noan'anaviy



shakllariga o'tishda dunyo tendensiyalari yangi axborot texnologiyalari bo'yicha tayyorgarlik olib boruvchi kasbiy o'quv yurtlarining soni ortib borishi kuzatiladi.

Universitetlar tashkiliy tizimlarining birlashtirilishi masofali ta'limning o'ziga xos tendensiyasi hisoblanadi. Misol uchun oxirgi yillarda masofali universitet ta'limi tashkiliy tuzilishi yangi turi - universitetlar konsorsiumi rivojlanmoqda. Bir necha universitetlar faoliyatini birlashtiruvchi va boshqaruvchi maxsus tashkilot masofali ta'lim xizmatlarini ko'rsatmoqda. Universitetlar konsorsiumi turli universitetlarda ishlab chiqilgan abituriyentlar uchun kurslardan tortib ilmiy daraja olishgacha bo'lgan kurslardan iborat kurslar to'plamini taklifetadi.

G'arbiy Yevropada oliy ta'lim olish darajasidan masofali ta'lim "ochiq universitetlar" deb ataluvchi shakllarda amalga oshiriladi. Milliy ochiq universitetlar ko'p jihatdan sirtqi ta'lim tashkiliy prinsiplaridan foydalanadilar. Ochiq ta'lim asosida - o'qituvchilar o'zlari oldilarida turgan ta'lim maqsadlariga erishishga intilib to'la mustaqil yo'naladigan ta'limmuhitipuxtaishlabchiqilgan.

Ta'limning ochiqligi prinsipi quyidagini anglatadi: oliy o'quv yurtiga ochiq o'qishga qabul qilishi ya'ni zarur yoshga yetishdan tashqari (18 yosh) har qanday shart va talablardan voz kechish; o'qishni ochiq rejalashtirish ya'ni kurslar sistemasidan yo'li bilan o'qish individual dasturini tuzish erkinligi; o'qish vaqti va sur'atlarini erkin tanlash ya'ni butun yil davomida tinglovchilarni oliy o'quv yurtiga qabul qilish va belgilangan o'qish muddatlarining yo'qligi; o'qish joyini erkin tanlash: o'quv vaqti asosiy qismida tinglovchilar o'quv auditoriyalarida jismonan bo'lmaydilar va qaerda o'qishnimustaqiltanlayoladilar.

Ochiqlik prinsipini amalga oshirish katta tashkiliy yangiliklarga olib keldi ularni axborotlarni saqlash qayta ishlab chiqish va yetkazish yangi texnologiyalarini tatbiq etish hisobiga amaliy amalga oshirilishi mumkin bo'ldi. Misol uchun o'tgan asr 90-yillarida telekonferensiyalar o'tkazish texnologiyasi asosida masofali ta'lim yangi modeli paydo bo'ldi. Modelning asosini o'qituvchilar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro aloqalar asosiy shakli hisoblangan haqiqiy vaqt davomida ham bo'lishi mumkin bo'lgan telekonferensiyalar o'tkazishdan iborat. Shu bilan birga telekonferensiyalar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ham va o'quvchilarning o'zlari o'rtalarida ham o'tkazilishi mumkin. Bular audio audiografik video-kompyuterli telekonferensiyalar bo'lishi mumkin. Telela'lim modeli yaqinda paydo bo'ldi lekin u zamonaviy ta'limda tashkil etishda tubdan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Mana shu asosida zamonaviy ta'limning yangi tashkiliy shakli - virtual universitetlar rivojlanayotganligida bu yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'qishning bu shaklini biz yangi ta'limning endi paydo bo'layotgan modeli sifatida qaraymiz. Mazkur modelida O'quv maqsadlarida foydalaniladigan telekonferensiyalar texnologiyasiga ega bo'lgan ta'lim tizimini qayta qurish mavjud imkoniyatlari amalga oshiriladi. Bu texnologiyalar tinglovchilar guruhlariga va alohida



o'qituvchilarga bir-biridan har qanday masofadan turib o'quvchilar bilan va o'zaro uchrashish imkonini beradi. Bunday zamonaviy telekommunikatsiya vositalari bosma matnlar audio va videotasmalar o'rini bosuvchi kompyuterli o'quv dasturlari bilan to'ldiriladi. Masofali ta'limning bunday modeli paydo bo'lishi faqatgina masofadan turib emas, balki ta'lim muassasasi qandayligidan qat'iy nazar ta'lim berishni olib borishga olib keladi. Bunday model hali to'la amalga oshirilgan emas. Bu model katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda xususan jamoatchilik tomonidan tan olinishi va ma'lum ilmiy daraja berish diplom va sertifikatlar berish huquqini olish (virtual universitet akkreditatsiyasi) muammolari. Mana shu qiyinchiliklarni yo'qotish va virtual universitet modelining to'la rivojlanishi zamonaviy ta'lim tashkiliy tuzilishida chuqur o'zgarishlarni anglatadi.

Masofali ta'lim faqatgina milliy ta'lim tizimi (institutSIONAL) doirasidagina emas balki oliy ta'lim butun dasturining to'rtidan bir qismini tashkil etuvchi asosan biznes sohasida tayyorlashga yo'naltirilgan alohida tijorat kompaniyalari tomonidan ham rivojlantirilayotganini alohida ta'kidlab o'tish zarur. IBM General Motors Ford kabi va boshqa kompaniyalar tomonidan xususiy korporativ ta'lim tharmoqlari yaratilgan. Mana shu ta'lim tizimlarining ko'pligi murakkabligi bo'yicha ham va soni bo'yicha ham universitetlarda yaratilgan tizimlardan ancha ilgari ketgan.

Oxirgi o'n yilliklar davomida masofali o'qitishning rivojlanishi uzluksiz ta'lim vositasi sifatida dunyo hamjamiyatining diqqat markazi ob'ekti hisoblanadi. 1990 yil mhart oyida Yevropa komissiyasi "Masofali o'qitish va kasbiy tayyorlash" ishchi hujjatini qabul qildi bu hujjatda ta'lim "ayniqsa ta'limning samaraliligi nuqtai nazaridan qiziqarli. Yuksak sifatli ta'lim texnologiyalari markazda ishlab chiqilishi va shundan keyin joylarda tarqatilishi mumkin" deyilgan. Masofali ta'lim uchun qulay sharoitlar yaratish uchun 1994 yilda Yevropa komissiyasi "Leonardo da Vinchi" dasturini ishga soldi. Ushbu dastur "butun hayoti davomida uzluksiz ta'limni va tayyorlash yangi shakllari" tizimini rivojlantirishi kerak. "Sokrat" dasturi "uyda ta'lim olishni yevropa masshtabiga olib chiqish" maqsadini o'z oldiga qo'yadi.

Masofali ta'lim sohasida faoliyatni muvofiqlashtirish uchun butundunyo masofali ta'lim assotsiatsiyasi (WAOE) tashkil etildi bu assotsiatsiya masofali ta'lim mintaqaviy ta'lim tizimlarini birlashtiradi.

Dunyoda masofali ta'limning tizimlari turli-tumanligi xizmatlar ko'rsatiladigan ta'lim va tashkiliy shakllari juda xilma-xilligi sababli hatto oddiy turlarga ajratish ham juda qiyin. Quyida chet el nashrlari materialari bo'yicha masofali ta'lim o'qitish tizimlari eng e'tiborlilariko'rsatibo'tilgan.

Mamlakat Masofali ta'lim o'qitish tizimi Belgiya Bryusseldagi Oliy iqtisodiyot maktab.(ESAL)AQShda masofali ta'limning holati va tendensiyalarini alohida ko'rib chiqishni muhim deb hisoblaymiz. Birinchidan ta'limning bu turi o'quvchilar



ko'p qismini qamrab olgan ikkinchidan o'qitish masofali shakli an'anaviy ta'lim tizimlari bilan (maktab o'rta ta'limdan keyingi hamma ta'lim turlari firmalar ichidagi kasbiy ta'lim) tabiiy ravishda birlashtirilgan.

MDH davlatlarida faqatgina 1 millionga yaqin odam masofali ta'lim tizimida o'qitiladi. Misol uchun 40 ta injenerlik maktablaridan konsorsium tashkil etuvchi Milliy texnologik universitet 90-yillardayoq masofali ta'lim metodi bilan 1100 tinglovchilarni magistr darajasiga tayyorlashni ta'minladi. Masofali ta'lim uchun AQShda televideniadan keng foydalaniladi. PBS-TV ommaviy teleko'rsatuvlar tizimi doirasida milliondan ortiq tinglovchilar o'qitiladi. Kattalarni o'qitish dasturi fan biznes boshqaruv kurslarini o'z ichiga oladi. Biznes moliya va AQShdan chiqishsiz huquqi sohasida bakalavr magistr va doktor diplom hamda ilmiy darajalarini olish bilan amerika Kennedi-Vetseri universitetidagi masofali o'qitish dasturi ta'lim xizmatlari orasida alohida o'rin tutadi. Dastur xalqaro tan olingan mavqeini olishni istagan biznesmenlar va bankirlar uchun mo'ljallangan. Mayk Xart tomonidan boshqariladigan Illinoe shtati Benedikt kolleji "Guttler berg" loyihasi ASCh-fayllar ko'rishida klassik asarlarni iloji boricha keng auditoriyaga yetkazish maqsadini o'z oldiga qo'yadi. Amerika ta'lim xizmatlarini ta'lim xizmatlar bozorida taqdim etishda BMI (Business Management Internatsional) - Kaliforniya shtatida (AQSh) San-Fransisko shahrida shtab-kvartirasiga ega ixtisoslashtirilgan amerika konsalting kompaniyasi katta faollik ko'rsatmoqda. Shunday qilib masofali ta'lim faoliyatiga keltirilgan misollardan G'arbda masofali ta'limning rivojlanishi asosiy tendensiyasi masofali ta'lim tizimi orqali taqdim etiladigan ta'lim xizmatlarining kengligi va turli xilligi hisoblanadi degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari masofali ta'limning rivojlanishi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Hozirgi zamon talabiga to'liq javob beradigan mutaxassisni tayyorlash bu – davr talabidir. Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash o'qitish bilim berish zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Ulardan asosiysi "Masofadan o'qitish texnika va texnologiyasi"dir. Shu nuqtai nazardan yosh avlodni masofadan o'qitish tizimiga tayyorlash bosqichlarini quyidagi ko'rishda amalga oshirish mumkin.

Hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda masofaviy o'qitish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta'limning bu turi shu paytgacha mavjud bo'lgan ta'lim turlaridan o'zining ayrim ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. MO'ning kunduzgi va boshqa ta'lim turlaridan farqli jihati shundaki mazkur ta'lim turiga juda keng aholi ommasini jalb qilish mumkin. MO' o'zida kunduzgi va sirtqi ta'lim turlarining ijobiy xususiyatlarini mujassam etadi



Shu jihatlariga ko'ra MO' hozirgi kundagi istiqbolli ta'lim turlaridan biri hisoblanadi. MO' asosida ta'lim berish uchun o'qish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini ta'lim muassasasi joylashgan yerga yig'ish shart emas. Ikkinchidan tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan ortiqcha sarf – xarajat qilish zarurati bo'lmaydi. Uchinchidan bu ta'lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin. MO'ga jalb qilinuvchi kontingentni quyidagi ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

- ikkinchi oliy yoki qo'shimcha ma'lumot olish malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o'tash istagida bo'lganlar;
- mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari;
- an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma'lumot olaolmagan yoshlar;
- o'z ma'lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish istagida bo'lgan firma va korxonalar xodimlari;
- ikkinchi parallel ma'lumot olishni xohlagan tinglovchilar;
- markazdan uzoqda kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi;
- erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar;
- jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar;
- harbiy xizmatda bo'lgan shaxslar va boshqalar.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad va vazifalari bosqichma – bosqich ro'yobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ayondir. Zamonaviy axborot texnologiyalariga: multimedia bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, bir alifbodan ikkinchi bir alifboga o'tkazish, kompyuterli test nazorati, skaner texnologiyasi, internet, elektron pochta, Web – texnologiya, elektron virtual kutubxona, masofadan turib ta'lim berish, taqdim etish texnologiyasi, sun'iy tafakkur tizimlari va boshqalar kiradi.

Ta'lim sifatini boshqarish tizimining amalga oshirilishi ulkan insoniy va moliyaviy sa'y-harakatlarni talab qiladi, ushbu harakatlarga haq to'lanishi uchun esa bundan olinadigan foyda namoyish qilinishi kerak. Sifatni oshirish bo'yicha har qanday loyihaga chiqimni qoplash, ya'ni u qilingan xarajatlardan ko'proq foyda berish-bermasligi jihatidan yondashish kerak. Ta'lim jarayonini tartibga solish va istalgan natijaga - ta'lim sifatiga erishish uchun uni davlat xarakteriga va xalqaro xarakterga ega hujjatlar bilan tartibga solish zarurligi davlat ta'lim standartlarini joriy etish uchun juda dolzarbdir. Bunday hujjatlarda belgilangan normalar va talablar ta'lim jarayonining vazirliklar va idoralari (hamda ularning joylardagi organlari)dan tortib to ta'lim muassasalari ma'muriyati, pedagoglar, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalargacha barcha ishtirokchilari tomonidan so'zsiz bajarilishi shart bo'ladi.



3-Mavzu Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi dasturlar asosida ishlay oladigan kadrlarni sifatini oshirish.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan ilg'or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagoglarni tayyorlash.
2. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarini tayyorlash.

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan ilg'or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagoglarni tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tilganidek, maktabgacha ta'lim – bu ko'p tomonlamali, maqsadga yo'naltirilgan, bolaning ta'limning keyingi bosqichi – maktab ta'limiga tayyorlovchi, jismoniy, ruhiy, individual va yoshga doir rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim va tarbiya jarayonidir. Maktabgacha ta'limning vazifalariga esa quyidagilar kiradi: 1) bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-ahlokiy jihatdan tarbiyalash; 2) bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish; 3) maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash; 4) bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikri-ni mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish; 5) bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'min-lash. Maktabgacha ta'lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va tugatish Qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari yunalishiga karab quyidagi turlarga bo'linadi: - bolalar yasalisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi; - bog'cha-maktab majmuasi; - tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir necha ustuvor yunalishlarda rivojlantiradigan maktabgacha ta'lim muassasasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, ma'naviy va jismoniy sog'lom barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini mustahkamlash masalalari hukumatimiz olib borayotgan ishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Dastur asosida keng ko'lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:



- bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;

- 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 2.2 trillion so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishiladi:

- yuqori sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etishga;

- bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etishga;

- 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini 50 ta yangi qurilish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirishga;

- qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirishga;

- bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobarga oshirishga.

Dasturning samarali amalga oshirilishi unda ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar ijrosining borishini tizimli monitoring qilib borish orqali davlat organlarining doimiy nazoratida bo'ladi. Bu qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlari tegishli dastur asosida amalga oshiriladi, mazkur dasturda bolalarni har tomonlama aqliy va ahloqiy rivojlanishi, atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi, tegishli lug'at hajmi hamda bolalarning har bir yosh bosqichida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan nutqiy mahorat va ko'nikmalari belgilab qo'yilgan bo'lib, u muayyan shaxs sifatlarini tarbiyalashni ko'zda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biri nutq, o'qish va savodga tayyorgarlikdan iboratdir.



O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonida "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Globalashuv sharoitida o'ziga xos ijtimoiy institut hisoblanuvchi maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yish muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, bolalarni maktabgacha ta'lim yoshidan ijtimoiy munosabatlarga moslashtirish turli salbiy holatlar yuzaga kelishining oldini olishda o'ziga xos dolzarflik kasb etadi.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarorida; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim –tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

O'zbekiston respublikasi Davlat MT to'g'risidagi Nizom Mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda ta'lim tizimini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq: maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihati belgilab berildi. Xususan, farmonda qayd etilganidek, mamlakatimizda so'nggi 20 yil davomida davlat



tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamaygan bo'lib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil qiladi, xolos. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi ham zamonaviy talablarga deyarli javob bermaydi. Qolaversa, hududlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'proq o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar faoliyat yuritayotgani bois maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar yetarlicha o'tilmayotgani, ko'plab bog'chalar binolari talabga javob bermasligi, ayniqsa, bolalar qamrovi tumanlar kesimida olinganda, 18 — 20 foizni tashkil etishi hech kimga sir emas. Mazkur hujjatda sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalardan keng foydalanish, ularga shart-sharoitlar yaratish, bolalar qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirish, yosh avlodda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, ularning sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini tashkil qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish kabi juda dolzarb masalalar qamrab olingan. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar hamda pedagog xodimlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash ham o'ta muhim masalalar sifatida ko'rsatilgani, ayniqsa, e'tiborga molik.

Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tuzilishi bu boradagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz. Endi idoraviy mansubligidan qat'i nazar, davlat tasarrufidagi barcha maktabgacha ta'lim muassasasi mazkur vazirlik tizimiga o'tkaziladi. Vazirlik zimmasiga bir qator muhim vazifalar yuklatildi. Xususan, maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olib, maktabgacha yoshdagi bolalarni har jihatdan intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, davlat hamda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga farzandlarimizni maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich to'liq qamrab olinishini ta'minlash ana shular jumlasidandir. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin hamda o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, tajribali yuqori malakali, kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar va tarbiyachilarni o'quv-tarbiya jarayoniga jalb qilish kabilar ham vazirlikning diqqat-e'tiborida bo'ladi. Umuman, hujjatlar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sanalmish maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylanadi. O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 oktyabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda "Qaysi sohani olmaylik, biz



zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi", deb ta'kidladi.


Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.

Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshlandik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi, deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoev.

2. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash.

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari. Maktabgacha pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarining qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Shunga ko'ra pedagogikaning psixologik fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan.





Hozirgi zamon pedagogikasi ko'p tarmoqli fan bo'lib, avvalo u tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bog'lanadi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar bilan ishlash metodi.

Pedagogik muammolarni tadqiq etish adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. O'rganilgan hujjatlar va manbalarga xalk maorifiga aloqador hujjatlar, qonunshunoslikka oid huquqiy hujjatlar kiradi. Shu bilan birga pedagogika faniga oid bulgan tarixiy pedagogik adabiyotlar, darsliklar, o'quv-metodik ishlanmalar ham kiradi. Adabiyotlarni o'rganish metodi muammolarining qay tomonlama yaxshi ochilgan, qaysi masalalarni xal etilmagani kabilarni bilish imkoniyatini beradi. Adabiy manbalar bilan ishlash quyidagi metodlardan foydalanishni nazarda tutadi: bibliografiya tuzish, annotatsiya, konspektlashtirish.

Ilg'or tajribalarni o'rganish metodi.

Maktabgacha pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribani o'rganish jarayonidagi muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Pedagogik tajribalarni o'rganishda kuzatish, anketalashtirish, tarbiyachi va bolalarning ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

Kuzatish metodi.

Ma'lum bir pedagogik xodisani biror maqsadni ko'zlab muntazam ravishda o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonining turli sharoitlarida uning rivojlanishi va o'zgarishini kuzatib borishdir. Kuzatishdan asosiy maqsad faktlar to'plash, uning muhim tomonlarini ajratib borishdir. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi.

Suhbat metodi.

Suhbat aniqlanishi kerak bo'lgan masalalarni oydinlashtirib olish maqsadida, oldindan tuzilgan reja asosida o'tkaziladi. Suhbat yakka tartibda, hamda jamoa tarzida bo'lishi mumkin. Suhbat bolalar hayotining u yoki bu voqea xodisalari to'g'risidagi qiziqishlarini, tasavvurlarini aniqlab olishga yordam beradi. Suhbat yoshlar bilan ham, katta yoshdagi kishilar bilan ham o'tkaziladi.

Anketa yo'li bilan so'rash metodi.

Anketa yo'li bilan so'rash metodining boshqa metodlardan afzalligi shundaki, qisqa vakt ichida anketa orqali anchagina kishilarga savollar berib, ulardan yozma javoblar olish mumkin. Olingan javoblar ko'rib chiqiladi va tahlil kilinadi.

Hujjatlarni va bolalarni ishlarini o'rganish metodi.

Pedagogik hujjatlarni o'rganish orqali tadqiqotchi o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida har xil ma'lumotlarni bilib oladi. Bunga MTM mudirlari, tarbiyachilarning rejalari va hisobotlari, MTM tarbiyalanuvchilarining rasmlari, loydan yasagan buyumlari va shu kabilar kiradi. Masalan: bolaning ancha ilgari



chizgan rasmlarini qarab chiqish, tahlil qilish, bolalarga berilgan topshiriqlarni qay darajada murakkablashib borganini, ularda tasvirlash faoliyati qanday rivojlanib borganini aniqlashga hamda ular bilan olib boriladigan keyingi ishlarni belgilashga yordam beradi.

Mutaxassislar tayyorlash va ulardan foydalanishda raqobatchilik sharoiti yo'qligi, bu hol ularning ta'limi sifatiga qo'yiladigan talablar jiddiy pasayishiga olib keldi.

Mazkur sabablardan tashqari, tayyorlash jarayonida sifatni yaxshilash ko'zda tutilmagan, bir xil darajadagi qat'iy cheklangan oliy ta'lim tizimi ham mutaxassislar tayyorlash sifatining pasayishiga olib keldi. Odatda, qancha qabul qilingan bo'lsa, shuncha mutaxassis chiqarilardi (ozgina saralanish bundan mustasno), to'g'rirog'i, shuncha oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom berilardi. Bunda, odatda, raqobatbardosh potensial mutaxassislar barcha bitiruvchilarning 7—12 %dan oshmasdi.

Kasb-hunar ta'limining barcha darajalarida shunday kadrlar tayyorlashning natijasi ko'pchilik bitiruvchilarning sifati pastligi hamda raqobatga dosh berolmasligidan iborat bo'ldiki, bu mustaqil

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishida jiddiy iqtisodiy ziyon yetkazdi.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasi barcha darajalardagi kadrlar tayyorlash sifati va ularning raqobatbardoshligiga:

- Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning jips aloqasi;
- Ta'lim muassasalari tiplarining va fan, texnika, texnologiya hamda iqtisodiyotning eng so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan kasb-hunar ta'limi dasturlarining xilma-xilligi;
- kasb-hunar ta'limi tizimini iqtisodiyotning ustuvor hamda daromad keltiradigan tarmoQiga aylantirish;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar hamda moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlash;
- kasb-hunar ta'limi tizimiga yuqori malakali o'qituvchilar va mutaxassislarni jalb etish;
- ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish;
- kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholashning ob'ektiv tizimini qo'llash;
- aql-idrokning rivojlanishi, o'lchanishi va baholanishi, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar muammosi, shuningdek, kasbga yo'naltirish muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik tadqiqotlarni bajarish;
- o'qituvchilarning moddiy va ijtimoiy jihatdan yuqori darajada



himoyalanganligi tufayli ta'minlanadi.

Barcha darajadagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash strategiyasi negizida ularni tayyorlash sifatini uch asosiy bosqichda ta'minlashga majmuaviy yondashuv yotadi.

Birinchi bosqichda mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj prognoz qilinadi va ular oldiga qo'yiladigan talab belgilanadi, ya'ni, mutaxassis modeli yaratiladi. Bunda sifatning o'sib boruvchi darajasi belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda mutaxassislarni tayyorlash amalga oshiriladi, u belgilangan sifat darajasini ta'minlashi zarur.

Nihoyat, mutaxassislardan professional faoliyatda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan uchinchi bosqichda ta'minlangan sifat darajasi ham o'z ustida uzluksiz ishlash yo'li bilan, ham maxsus ta'lim muassasalarida malaka oshirish yo'li bilan oshirilishi kerak.

Ushbu strategiyaning huquqiy asosi Davlat ta'lim standartlari va talablari, me'yoriy hujjatlar, nizomlar hamda ta'lim muassasasining maqomini, moddiy-texnika bazasini, moliyalashtirilishini, o'qituvchilar tarkibini, o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish va boshqa faoliyatini belgilovchi boshqa hujjatlardir.

Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun kasb-hunar ta'limida standartlashtirish o'sib borishi lozim. Uning mohiyati amalda erishilgan me'yorlarga nisbatan yuqori va sifat jihatdan yangi talablarni belgilashdan iborat. O'sib boruvchi ta'lim standartlarida mutaxassislar bitirish vaqtiga kelib o'sha paytdagi fan, texnika, texnologiyalar va iqtisodiyot yutuqlari darajasiga muvofiq kelishlari lozim bo'lgan talablar darajasi bo'lishi lozim.

Ta'limdagi standartlashtirish majmui ham bo'lishi lozim.

Birinchidan, u kasb-hunar ta'limi uzluksizligini va uzviyligini ta'minlagan holda, kadrlar tayyorlashning oddiy ishchidan tortib yuqori malakali mutaxassisgacha o'zaro bog'liq darajasini qamrab olishi lozim.

Ikkinchidan, ta'lim standartlari majmui mutaxassisni shakllantirishning barcha bosqichlarini o'z ichiga olib, ular o'rtasida mustahkam o'zaro aloqani ta'minlashi darkor.

Nihoyat, uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining ta'lim standartlari, sifatli mutaxassis tayyorlash va uni baholashga yagona yondashuvni ta'minlash uchun xalqaro talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi hamda takomillashtirilishi zarur. Bu raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ulardan foydalanishda xalqaro tajribani ishga solish hamda intellektual sohada mustahkam hamkorlikni tashkil qilish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan strategiya va rivojlangan mamlakatlar tajribasiga muvofiq kadrlarni tayyorlash va ularning raqobatbardoshligi sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:



1. Shaxsga kasbni o'z ixtiyori bilan tanlashda va mehnat bozoridagi ehtiyojlar, imkoniyatlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda bandlikning maqbul turini tanlashda ko'maklashishni ta'minlovchi, shuningdek, yoshlarning tabiiy qobiliyatini qo'llab-quvvatlovchi va taraqqiy ettiruvchi kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish. Hozirgi vaqtda bu ish bilan psixologik-pedagogik tashxis va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish markazlari shug'ullanishmoqda.

2. Tarmoq va mintaqa iqtisodiyoti uchun integratsiyalashgan ta'lim muassasalari doirasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish.

3. Xalqaro standartlar negizida, fan, texnika, texnologiyalar va iqtisodiyotning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan o'sib boruvchi va majmuaviy ta'lim standartlarini qo'llash.

4. Barcha darajadagi mutaxassislarning malaka tavsifini mehnat bozorining o'sib boruvchi talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqish.

5. Ta'lim jarayonida eng yangi pedagogik, axborot, kompyuter texnologiyalari va boshqalar qo'llanilishini hisobga olgan holda, bir tipdagi o'quv rejalari hamda dasturlarini takomillashtirish.

6. Ta'lim jarayonida o'qitishning audiovizual uslublarini, axborot texnologiyalarini keng qo'llash.

7. Barcha darajadagi mutaxassislarni tayyorlash sifatini o'lchash hamda baholash bo'yicha ilmiy asoslangan tizimni ishlab chiqish va joriy etish.

8. Kasb-hunar ta'limi muassasalarini zamonaviy o'quv, ilmiy va uslubiy adabiyotlar, shuningdek, moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlash.

9. Kasb-hunar ta'limining barcha darajalarida ishlab chiqarish ta'limi (amaliy ta'lim)ni sarflash materiallari bilan ta'minlash.

10. Kasb-hunar ta'limi tizimi tuzilishi (yangi tipdagi ta'lim muassasalari) va sifatini isloh qilishni hisobga olgan holda o'qituvchilarni qayta tayyorlash.

11. Ta'lim muassasalari faoliyatini nazorat qilishning me'yoriy asosi va talablarini takomillashtirish.

12. Ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish hamda moliyalashtirish me'yorlarini sanoati va intellektual jihatdan rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish.

13. Respublikaning raqobatbardosh kadrlari salohiyatini turli darajadagi ishlovchi va qo'li bo'sh mutaxassislar hisobiga tiklash.

14. Barcha darajadagi kadrlarni maqsadli tayyorlashni rivojlantirish hamda takomillashtirish.

15. Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilishning yagona tizimini shakllantirish.

Quyidagilarni ta'lim sifatini boshqarishning umumiy funksiyalari sifatida



ko'rib chiqamiz:

1. TMni rivojlantirish strategiyasini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» gi qonunlarida rasman ta'riflangan ta'lim sifatining asosiy yo'nalishlari hamda maqsadlariga va tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilash.

2. Ta'lim sifatini loyihalash. U sifatni boshqarish jarayoniga asos bo'ladi. Bu funksiya iste'molchilarning malakali kadrlarga bo'lgan talabini muntazam o'rganish, mutaxassislar, standartlar modelini tahlil qilish negizida amalga oshiriladi. Buning uchun ta'lim sifatini tavsiflovchi muayyan ko'rsatkichlarning shakllantirilgan tizimi bo'lishi zarur. Barcha ish sifatni o'lchash va baholashning miqdoriy uslublariga asoslangan bo'lishi lozim.

3. Ta'lim sifatini monitoring qilish, ya'ni ta'lim tizimining amal qilish jarayonini muntazam kuzatish, uning ahvolini kuzatib borish. Bunday kuzatish natijalari ta'lim sifatini ob'ektiv baholash hamda pedagoglar jamoasi faoliyatining keyingi yo'nalishini prognoz qilish imkonini beradi.

4. Ta'lim sifati tizimini (sifat kafolatini) ta'minlash. Bunga boshqaruv xodimi tomonidan tashkiliy tuzilmani yaratish, majburiyatlar va mas'uliyatni taqsimlash, o'qitishning tegishli metodikalarini, texnologiyalarini tanlash, moddiy va moliyaviy zaxiralardan samarali foydalanish, pedagogik jarayonni amalga oshirish singari tadbirlar kiradi.

Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarning elementlar bo'yicha tarkibi ham muhim. Ayni mahalda ta'lim muassasasi boshqaruv xodimlari boshqaruv faoliyatiga xos bo'lgan ko'rsatkichlarni ham hisobga olishlari kerak. Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatamiz:

«Tasniflash» blokida — boshqaruv kadrlarining:

— pedagogika, psixologiya, fiziologiya va gigienani (umumiy, kasbiy, yoshga oid, ijtimoiy va boshqalar);

— ta'lim jarayonini tashkil etishni;

— xodimlar va ta'lim oluvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini;

— umumta'lim, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikka, kasbga, ixtisosga, bo'lg'usi mutaxassis malakasiga oid ijtimoiy me'yorlar va talablarni;

— ishlab chiqarish ta'limi va ishlab chiqarish amaliyoti talablari mazmunini;

— ta'lim muassasalarida va umuman ta'lim tizimida boshqaruvning nazariy asoslarini bilishi.

«Kasb mahorati» blokida — quyidagi sohalarda ijtimoiy-psixologik mahorat va ko'nikmalarni:

— pedagoglar, tarbiyachilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, umumkasbiy, maxsus va umumta'lim fanlari o'qituvchilarining Yagona jamoasini ularga yagona pedagogik talablar qo'yish, individual imkoniyatlarini hisobga olish va o'rganish,



jamoada oldida turgan vazifalarni hal qilishda har birining rolini ko'rsatish asosida shakllantirish;

— ta'lim muassasasining jamoatchilik organlarini tuzish hamda boshqarishga ularni jalb qilish;

— muhandis-pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini, o'zaro munosabatlarini tartibga solish, tanqid va o'zini o'zi tanqid, tartib, intizom va uyushqoqlikka qat'iy rioya etish muhimligini hisobga olgan holda ularning harakatini moslashtirish asosida tashkil qilish;

— ta'lim sifatini boshqarish maqsadlari va vazifalarini ta'riflash;

— ta'lim sifatini oshirish dasturlari va jarayonini rejalashtirish;

— ko'rsatkichlar nomenklaturasini, ta'lim sifatini o'lchash va baholash mezonlarini ishlab chiqish sohalaridagi ijtimoiy-psixologik mahorat va ko'nikmalar.

«Faoliyat unumdorligi» blokida — ta'lim oluvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari, konkret kasbni o'zlashtirish ko'rsatkichlari muhim hisoblanadi.

Rahbar malakasining yuqori darajasi— faoliyat dasturini sifatli loyihalashtirishning zarur sharti.

Keyingi yillardagi ilmiy adabiyotlarda «istiqbolni qat'iy qilib, yuqori darajada ehtimollik bilan rejalashtirib bo'lmaydi» degan fikr ko'p uchramoqda (L. Fatkin). Shu bois ta'lim muassasasi boshqaruv xodimi loyihalashtirishda taxmin qilinayotgan jarayonlar va hodisalarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini chuqurroq o'rganishi va idrok etishi, ularning ko'rsatkichlar nomenklaturasini asoslashi va ishlab chiqishi kerak bo'ladi. Bu ob'ekt ko'rsatkichlarining muntazam takomillashtirilishi mahsulot va xizmatlar sifatini loyihalashtirish va ta'minlashning zarur shartlaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi bilan bog'liq. Bunda barcha ishlar ob'ekt sifatini o'lchash va baholashning miqdoriy metodlariga tayanadi. Shu tariqa aniqlangan ta'lim muassasasi faoliyati holatining ob'ektiv ko'rsatkichlari boshqarishning tegishli tartibini tanlashda asos qilib olinadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy vaziyat o'zgarib borayotganida, demokratlashtirilayotgani va insonparvarlashtirilayotganida, mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlari yo'ldan rivojlanishga o'tayotganidadir. Yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezayotgan ishlab chiqarishning talablari oshib borayotgani ham yangiliklarni o'zlashtirishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mamlakatimiz ta'lim tizimini dunyo ta'lim tizimi bilan muvofiq holga keltirish yo'llaridan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Raqobatbardosh malakali kadrlarning eng muhim sifatleri orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

— o'quvdagi o'zlashtirishning yuqori darajasi va o'zini o'zi rivojlantirishga qodirligi;

— mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida tegishli ta'lim muassasasida olingan



malakani tasdiqlash;

- ishlab chiqarishda yuqori darajadagi ijtimoiy faollik va mehnat unumdorligi;
- ishlab chiqarishda intizomlilik, mas'uliyat, ixtirochilik, ijodkorlik;
- o'quv fanlari bo'yicha olimpiadalar hamda tanlangan kasb mahorati tanlovlarida qatnashish va g'olib chiqish;
- ta'limni davom ettirishga ehtiyoj.

Ta'lim muassasasining aynan shunday xislatlarga ega bo'lgan bitiruvchisi qo'yilgan talablarga muvofiq mahsulot tayyorlashi yoki xizmat ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim muassasalari, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish uchun, rivojlanish yo'lidan borishi kerak. Aksariyat amaliyotchi xodimlar buni anglab yetgan holda, eskicha yondashuvlarni takomillashtirishni emas, balki ta'lim tizimini innovatsion strategiya ruhida rivojlantirishni tan olmoqdalar. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi innovatsion harakat jamiyatdagi real o'zgarishlarni va shaxs ehtiyojini hisobga olishga yo'naltirilgan.

Innovatsion ta'lim strategiyasi ta'lim sifatini boshqarishda alohida boshqaruvchilik yondashuvini taqozo etadi. Quyidagilar bunday boshqaruvning asosiy ob'ektlari hisoblanadi:

- pedagog mutaxassis, fuqaro shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda professional tashkilotchi hamda yordamchi sifatida;
- ta'limning mazmuniy negizi;
- pedagogik jarayonni tashkil etish texnologiyasi va boshqalar.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda hamda ta'lim va tarbiya amaliyotida «innovatsiya» so'zi qanday tushuniladi?

Mamlakatimizda va xorijda o'tkazilgan bir qator tadqiqotlar ushbu hodisani o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, ayrim mualliflar «yangiliklar yaratish, ularning pedagoglar tomonidan o'zlashtirilishi va ta'lim amaliyotida foydalanilishi jarayonlari» ni (N. Yusufbekov) innovatsion jarayonlar deb hisoblashni taklif qilmoqdalar. Ular innovatsiyani, jamiyat madaniy o'zgarishlarining negizi sifatida ko'rib chiqmoqdalar-ki, bu bizningcha, juda qimmatlidir.

Boshqalar esa «pedagogik tizimning tartibga solinmaydigan erkin maydonida rivojlanish istiqboliga oid ehtiyojga ta'sirchanligi asosida vujudga kelgan yangiliklar uning mikroevolyusiyalar fondini tashkil etadi», deb hisoblamodalar (V. N. Vinogradov).

Uchinchi toifa mualliflar yangilikni ancha murakkab xususiyat, deb hisoblaydilar. Uni o'rganish uchun abstrakt xususiyatlarga nazariyasini jalb etish tavsiya qilinadi-ki, bu nazariya ko'plab tavsifli xususiyatlarni ular shkalasining koordinata o'lchovlari sifatida ko'rib chiqadi (M. S. Burgin).

Ayrim olimlar yangi maqsadlarni, metodlarni, metodikani, dasturlarni, vositalarni, mazmunni, faoliyatni tashkil etish shakllarini, boshqaruv turlarini va



boshqalarni yangilik sifatida talqin qilmoqdalar.

«Yangilanish — yangi hodisa, yangi odat, yangi metod, ixtiro», — degan ta'rif ham mavjud (Yu. Krasovskiy).

«Maktabni rivojlantirish — innovatsion jarayon» nomli kitob mualliflari ta'kidlab o'tganlaridek: «Pedagogik innovatika — ta'lim muassasasini rivojlantirishning yangi ta'lim amaliyotini yaratish bilan bog'liq jarayonlarini o'rganadigan fan sohasi. Bu jarayonlar innovatsion jarayonlar deb nomlanadi» (S. G. Xomeriki, M. M. Potashnik, A. V. Lorensov). Bunday aniqlik ta'lim tizimi xodimlariga muayyan foyda keltirishi mumkin.

Shunday qilib, ta'limda innovatsiyalar yangi jarayonlar, konsepsiyalar, ta'lim texnologiyalarini yaratish va o'zlashtirishni ko'zda tutadi va h. k.

Ammo, amaliyot ko'rsatishicha, innovatsion faoliyat ta'lim tizimining hamma xodimlari tomonidan ham to'g'ri tushunilavermaydi va samarali amalga oshirilavermaydi. P. Shedrovskiy ta'kidlab o'tganidek, «innovatsiyalikni bugungi kunda mavjud bo'lgan bironta ham funksiyasini innovatsiyaning takrorlash, chiqish deb nomlash mumkin bo'lgan narsani ta'minlay olmaydi. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi ayrim innovatsiya emas, balki umuman innovatsion harakat ko'rib chiqish va tahlil qilishning boshlang'ich parametri bo'lishi kerak». U «pedagogik yoki ta'lim innovatsiyalarini» emas, balki «innovatsion strategiyani», «faoliyatni innovatsion tashkil etish»ni aniqroq deb hisoblashni ko'zda tutadi. Biz innovatsiyani bunday talqin qilish tadqiqotchilarga bu jarayonni kengroq va chuqurroq ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi, deb hisoblaymiz.

Innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?

«Yangilik kiritishning mohiyatini innovatsion faoliyat, ya'ni yangi natijalarga, ularni olish vositalari va usullariga erishish, an'anaviy faoliyatning eskirgan tarkibiy qismlarini bartaraf etish bo'yicha faoliyat tashkil etadi», — deb ta'kidlaydi D. M. Gvishiani. Olim innovatsion faoliyatning radikal va takomillashtiriluvchi turlari o'rtasidagi ziddiyatli xususiyatiga e'tiborni qaratadi. Takomillashtirish mavjud tashkiliy tuzilmalarga zid emasligi va ularga maqbul moslashishi amaliyotdan ma'lum. Tub yangiliklar esa ularni parchalaydi, shuning uchun keskin qarshilikka uchraydi. Ta'lim sifatini boshqarish jarayoni tashkilotchilari innovatsiyalarning bunday muhim xususiyatini doimo e'tiborda tutishlari kerak.

Yangilik kiritish jarayonining muhim xususiyatini ta'kidlab o'tamiz — innovatsiya ushbu ta'lim muassasasi dolzarb vazifalarni samarali hal qilishga ko'maklashishi kerak. Afsuski, aksariyat ta'lim xodimlari amalda bunga yetarli e'tibor bermaydilar, natijada yangiliklarning o'zlashtirilishi rasmiyatchilikka aylanadi.

M. M. Potashnik innovatsiyalarning boshqa muhim xususiyati — yangiliklar ta'lim muassasasini rivojlantirish vazifasini hal qilish imkonini berishi deb



hisoblaydi. Boshqacha aytganda, innovatsiyalar «moda» uchun va «qizg'in» tadqiqotchilik faoliyati olib borilayotganini ko'rsatish uchun emas, balki o'quvchilar foydasini ko'zlab kiritiladi.

Boshqaruv xodimlari va pedagoglar muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina yangiliklarni samarali o'zlashtirish mumkinligini anglab yetishlari juda muhim. Bunga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

— ta'lim jarayoni qatnashchilarining faol ishchanligi bosqichma-bosqich shakllantirilishiga rioya etish;

— ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari tomonidan o'zlashtirish maqsadlarining chuqur anglab yetilishi va qabul qilinishi hamda kelgusi faoliyat vazifalari aniq tushunib olinishi;

— bunda ushbu vazifalarning shaxsiy maqsadlarga zid bo'lgan qismining har doim yuzaga keladigan qarshilik ko'rsatish omilini hisobga olish;

— fikr almashish aniq va xolis axborot ayirboshlash;

— amaliy qarorlarni jamoa bo'lib ishlab chiqish va qabul qilish.

Pedagogik kadrlarni jiddiy qayta tayyorlamasdan, ta'lim muassasasini tegishli moddiy-texnika bazasi, moliyaviy, o'quv-dasturiy ta'minlamasdan turib innovatsion faoliyatni samarali tashkil etib bo'lmaydi.

Yangiliklarni o'zlashtirish jarayoni rahbariyat tomonidan majburlash chorasi bilan emas, balki xodimlarga harakat qilishda mustaqil va erkin ish olib borish imkoniyatini berish bilan kechadi. Pedagoglar jamoasining ishiga aniqlik olib kirish imkonini beradigan ko'rsatkichlar va mezonlarning ob'ektiv ro'yxatini oldindan ishlab chiqish, ularga bebaho yordam berishi mumkin.

Pedagogik tadqiqotlarda innovatsiyalar yangiligini aniqlashga katta e'tibor beriladi. Kiritilayotgan yangiliklar alomatlarining variantlaridan birini keltiramiz (P. Shedrovskiy):

— boshqacha ko'rinishda ma'lum bo'lgan tuzilish (birinchi daraja);

— ma'lum narsani uncha muhim bo'lmagan o'zgarishlar bilan takrorlash (ikkinchi daraja);

— ma'lum narsani aniqlash, konkretlashtirish (uchinchi daraja);

— ma'lum narsani muhim elementlar bilan to'ldirish (to'rtinchi daraja);

— sifat jihatidan yangi ob'ektni tashkil etish (beshinchi daraja).

Ta'lim muassasasida uni tizimli tashkil etish yangiliklarni o'zlashtirishning yana bir o'ziga xos xususiyatidir. Bunda quyidagilar muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi:

— ta'lim muassasasining vazifasi, uning yangi maqsadlari va vazifalari;

— boshqaruv xodimlari va pedagoglar shaxsi, ularning o'zlariga va ta'lim oluvchilarga nisbatan nuqtai nazari;

— o'quvchi shaxsi;



- o'quvchilar o'zlashtirayotgan bilimlar funksiyasi, tuzilmasi;
- ta'lim texnologiyasi va vositalari;
- tashkiliy tuzilma, pedagogik mehnat madaniyati va boshqalar.

Yangiliklarni ishlab chiqish va o'zlashtirish jarayonini har qanday ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'li sifatida ko'rib chiqqan holda kiritilayotgan yangiliklardan kutilayotgan natijalarni baholashning quyidagi asosiy mezonlarini ajratib ko'rsatamiz:

1. Natijalar ta'lim muassasasining avvalgi yoki ushbu yo'nalishdagi ta'lim muassasalari uchun xos bo'lgan natijalardan yuqori, shuningdek maqbul bo'lishi kerak.

2. Rejalashtirilgan natijalarni olishga sarflanadigan vaqt namunaviy yoxud me'yoriy sarflanadiganiga nisbatan kamroq yoki ularga teng bo'lishi kerak.

Yangilik darajasini aniqlash uchun barchaga ma'lum algoritmlardan foydalaniladi. Masalan, quyidagicha yondashuv mavjud:

1. Baholanayotgan ob'ektning muhim ko'rsatkichlari, alomatlari, mezonlari ajratib olinadi.

2. Qiyoslash uchun unga o'xshashlari, uning prototiplari tanlab olinadi.

3. Baholanayotgan ob'ekt tanlab olingan o'xshash ob'ektlar bilan qiyoslanadi va mezonlarga muvofiq yangilik o'lchovi ham miqdoriy, ham sifat jihatidan belgilanadi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida ta'limni boshqarish sifatini yangilik hamda boshqaruv faoliyatining yangi yo'nalishi sifatida ko'rib chiqamiz.

Yangiliklarning keltirilgan tasnifiga muvofiq ta'lim sifatini boshqarishni biz to'rtinchi darajaga, ya'ni ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldirishga kiritamiz.

Keltirilgan ushbu ta'rif mazmunan tegishlicha to'ldirilishi va tuzilmalarga ajratilishi lozim, deb hisoblaymiz. Biz ishlab chiqqan tuzilmadagi ushbu qo'shimchalarning mohiyati quyidagilardan iborat.

Birinchi. Ta'lim sifatini boshqarish maqsadi nafaqat jamoa faoliyati natijalarini barqaror holatda saqlashdan, balki ta'lim muassasasini faoliyat (rivojlanish)ning bundan ham yuqoriroq darajasiga o'tkazish orqali talab qilinayotgan ta'lim sifatini ta'minlashdan iborat.

Ikkinchi. Natijalar sifati bitiruvchilarning ijtimoiy va ta'lim-kasb-hunar bobidagi harakatchanligi darajasi bilan ifodalanadi, ya'ni bunda gap ta'lim muassasasi rahbarlarining mavjud malaka tavsiflarini mutaxassisning kasbiy sifatlariga qo'yiladigan talablar bilan to'ldirilishiga yo'naltirish haqida bormoqda.

Boshqa loyihada ham shunday g'oya mavjud. Innovatsiyaning eng muhim formulalaridan biri quyidagi qoidadan iborat: «Ta'lim sifati — shunchaki bilimlar hajmi va ko'nikmalar tarkibi emas, balki zamonaviy mutaxassisning asosiy modelini



tashkil etuvchi faoliyatning muayyan turlariga shaylik demakdir».

Ta'lim sifati o'quvchilarni bilimga boyitish va ularning ongida statistik tuzilmasini shakllantirish bilan emas, balki ijtimoiy va kasbiy faoliyatda ular hayotini organik dinamika bilan ta'minlash orqali tavsiflanadi. Bilimlardan konkret muammolarni hal qilishda foydalanish, bilimlarni doimiy ravishda to'ldirib borish bo'yicha rivojlangan qobiliyat va intellektual rivojlanishning amaldagi rag'batlari zarur (I. G. Leonov).

Uchinchi. Ta'lim sifatini boshqarishda ta'lim muassasasi rahbarlarining asosiy e'tibori pedagoglar va o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish funksiyalarini kuchaytirishga emas, balki kamchiliklar paydo bo'lishining oldini olish hamda ularning vujudga kelish manbalari va sabablarini tahlil qilishga qaratiladi. Bularning hammasi boshqaruv kadrlaridan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning metod va usullarini egallash, nazariy qoidalarni amaliyotda qo'llash mahoratini talab qiladi. Boshqacha aytganda, ular boshqaruvda xilma-xil — intuitiv, empirik, tajriba, formal va ilmiy mantiqiy yondashuvlardan foydalanishlari darkor (M. M. Potashnik).

To'rtinchi. Ta'lim sifatini boshqarish ushbu jarayonga ta'lim jarayonining barcha qatnashchilarini kiritishni ko'zda tutadi. Faqat sharti shuki, tashkiliy tuzilma pedagogik jarayon qatnashchilari o'rtasidagi qat'iy «vertikal» aloqalardan «vertikal» bilan «gorizontal» aloqalarni bir-biriga uyg'un holda qovushtirishga o'tsagina shunday bo'ladi.

Beshinchi. Ta'lim sifatini boshqarish tizimli metodlardan foydalanishni ko'zda tutadi, bunda boshqaruv ob'ekti boshqacha xususiyatga ega bo'ladi: ... ta'limni innovatsion tashkil etishda faoliyatning ikki (ta'lim beruvchi bilan o'quv-bilish) turi emas, balki yaxlit holdagi o'quv-kasbiy vaziyat boshqaruv birligi hisoblanadi (I. Bogachek).

Bir guruh olimlar (O. G. Xomeiki, M. M. Potashnik, A. V. Lorenshev) taklif qilgan metoddan foydalangan holda ta'lim sifatini boshqarish jarayonining tasnifini ko'rib chiqamiz.

1. Innovatsiyalar ko'lamliligiga qarab belgilanadi. Bunda ta'lim sifatini kollej ichki yoki maktab ichki doirasida boshqarish butun ta'lim muassasasini qamrab oladigan tizimli yangilik hisoblanadi.

2. Yangiliklarni o'zlashtirish jarayoni salohiyat darajasiga qarab belgilanadi. Ta'lim muassasasi doirasidagi ichki boshqaruv innovatsiyaning kombinatorli tipidan iborat, ya'ni ilgari ma'lum bo'lmagan elementlarning tashkiliy tuzilmaning yangi modeli asosida yangicha konstruktiv qo'shilishi hamda ilgari bunday qo'shib foydalanilmagan prinsiplarning amalga oshirilishi sodir bo'ladi.

3. Yangilikning o'z o'tmishdoshiga munosabati ularning quyidagi toifasini tavsiflaydi. Ta'lim muassasasi darajasida sifatni boshqarishga nisbatan olganda aytish mumkinki, u boshqaruv faoliyatining shu paytgacha amal qilib kelgan



mohiyatini o'zgartiradi va to'ldiradi. Bu jarayon ikki bosqichdan iborat:

— birinchisi — bitiruvchilarni tayyorlash darajasiga qo'yiladigan nominal, normativ talablarning bajarilishiga qat'iy va to'liq yo'naltirish mavjud bo'lgan sharoitda ta'lim muassasasining faoliyati sifatini boshqarish. Boshqaruv nazariyasida bunday yondashuv konservativ yondashuv hisoblanadi (N. A. Selezneva);

— ikkinchi bosqich — rivojlanish sifatini boshqarish. Bunda o'zgartiruvchi-ijodiy, tadqiqot xususiyatiga ega faoliyatni amalga oshirish, yangiliklarni o'zlashtirish, o'z ilg'or pedagogik texnologiyalarini yaratish ko'zda tutiladi.

Ta'lim muassasasi barcha xodimlarining birgalikda harakat ishi bir-biriga muvofiq bo'lishiga erishish va tashkiliy madaniyat bunday boshqaruv samaradorligining zarur sharti bo'lib qolishi kerak.

Innovatsion jarayon bo'lgan ta'lim sifatini boshqarish quyidagi belgilarga ega:

Birinchi belgi. Faoliyatning yangi usuli mavjudligi.

Ta'lim sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruv kadrlari tomonidan ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko'zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, kvalimetriya asoslarini, ya'ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo'llash orqali ta'lim sifatining boshlang'ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda mahsulot, xizmatlar sifatini baholash, boshqaruv faoliyatining baholash ob'ekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi.

Ta'lim sifatini o'lchash sifat o'lchovini belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi.

Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi. Bu baholanayotgan ob'ektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog'liqdir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Shu bois boshqaruv tarkibi ta'lim sifati haqidagi axborotni olish va ishlashning statistik metodlarini qo'llay bilishi kerak.

Ikkinchi belgi. Rivojlangan tashkiliy madaniyatning mavjudligi.

Oldingi paragrafda ta'kidlab o'tilganidek, jamoada me'yorlar tizimlarini, qadriyatlarni, urf-odatlar va an'analarni yuqori darajada shakllantirmasdan turib, ta'lim sifatini boshqarib bo'lmaydi. Bularning hammasi ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari o'rtasida uyg'un o'zaro munosabatni vujudga keltirish imkonini beradi.



4-Mavzu. Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarni shakllantirish texnologiyasi.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muammoliy o'qitish texnologiyalari.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatiga innovatsion yondashuv.

Tayanch tushunchalar: usul, texnologiya, boshqaruv, pedagog, muammo, muhokama, kuzatuv, nazorat, munosabat, samaradorlik, nazariya, zamonaviy, vaziyat.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muammoliy o'qitish texnologiyalari.


Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat» «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib o'zida sub'ektning aniq yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi uni bartaraf etish yangi bilimlar usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa shubhasiz muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi ya'ni muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib etilishi ifodalanishi mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi biroq barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:

Jahon amaliyotida o'xshashi bo'lmagan mazkur konseptual model tarixiy hamda mamlakatimizning ta'lim sohasidagi tajribasi, shuningdek, rivojlangan demokratik mamlakatlarning ta'lim sohasidagi yutuq va tajribalarini e'tiborga olgan holda loyihalashtirilgan.



Muammoli o'qitish metodining tuzilmasi



Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni demak muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.

Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - O'quv materialiga oid tafovutlarni taklif etilishi; - muammoli vaziyatlarni tuzish; - muammoning mavjudligini aniqlab berish; -muammoli topshiriqlarni loyihalash 	<ul style="list-style-type: none"> - O'quv materiali mohiyatining anglab yetilishi; - muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash; - mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash; - muammoli masalaga o'tkazish; - topshiriqni bajarish

KTMD va KTMMning bosh maqsadi va vazifalari — Barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash, kadrlar tayyorlashning yuqori sifati va ularning raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish, ushbu jarayon mexanizmini ishlab chiqish, takomillashtirish ikkinchi



bosqichning o'ziga xos jihatlaridandir. Mazkur vazifaning yechimini ta'minlash, uning muhlatlari, ijrochilari, moliyaviy va resurslar ta'minotini to'la aks ettirishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni qaror toptirish va haqiqiy hamkorlik tamoyillariga amal qilinishiga erishishi zarur bo'lib, bu ta'lim sifatini yuksaltirish va kadrlar tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotida malakali kadrlarning tutgan o'rni va rolini chuqur anglab yetish imkonini beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va modeli ta'limning zarur sifatiga erishishda mazkur muammoni tizimli — boshqaruvning davlat va jamiyatdan tortib, pedagog hamda o'quvchigacha bo'lgan barcha sub'ektlarining o'zaro aloqada va, ayni paytda, birday mas'ul bo'lgan holda hal etish talab etiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi(UTT)ni va ta'lim sifatini boshqarish sohasidagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida KTMDning yechimi samarali amalga oshirilishi bilan belgilanadigan qator muammolar aniqlanganligini qayd qilib o'tish joizdir. Bundan tashqari, KTMDni amalga oshirish yillarida to'plangan tajriba va mavjud muammolar tahlili asosida ta'lim sifatini boshqarish masalalari bilan bog'liq tarqoq ilmiy tadqiqotlar va amaliy natijalarni sintez qilish, UTT rivojlanishining ijobiy natijalarini aniqlash hamda ushbu jarayonga nisbatan yangicha yondashib, boyitish vaqti keldi. Mavjud muammolarni puxta asoslangan nazariy qoida, tashkiliy-amaliy tadbir hamda samarali mexanizmlar yordamidagina hal qilish mumkin.

Biroq, ushbu o'rinda mavhum konseptual qoidalar, ta'lim sifatini boshqarishning nazariy modelini yaratishni mazkur faoliyatning bosh maqsadi, deb hisoblamaslik darkor. Ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyatning asosiy maqsadi - ijtimoiy-pedagogik jarayonlarda yiqilib qolgan turli muammolarni hal qilishdan, uni boshqarishda vujudga kelgan nazariy va amaliy yangiliklarni, sinov natijalarini e'tiborga olgan holda, hayotga tatbiq etishdan, ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Muammoli ta'limning asosini **muammo** (yun. "to'siq", "qiyinchilik") yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, muammoli TT ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko'p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Muammo (yunon. "to'siq", "qiyinchilik", arab. "jumboqli", "sirli", "tushunilishi qiyin") – hal qilinishi muhim

Mohiyatiga ko'ra muammo uni keltirib chiqargan sabablarni o'rganish, uni hal etishda ahamiyatli, samarali bo'lgan yo'l, metod va vositalarni izlash, ularning



samarali ekanligini asoslovchi dalillarni to'plash, dalillarni yangicha, yangi tahlitda izohlash asosida hal qilinadi.

Pedagogika sohasida ko'p holatlarda "muammo" tushunchasi tashkiliy-pedagogik, psixologik, ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Soha nuqtai nazardan pedagogik jarayonda quyidagi xarakterdagi muammolarga murojaat qilinadi:

- didaktik xarakterdagi muammo;
- amaliy xarakterdagi muammo;
- ilmiy-metodik xarakterdagi muammo;
- sof ilmiy xarakterdagi muammo

Ma'lum bilimlar, noma'lum bilimlar va mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi.


Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala

Ta'lim jarayonida muammoni qo'yish bir necha sathda kechadi.

Muammoni qo'yish darajalari

Darajalar	Muammoni qo'yish mohiyati
1-daraja	O'qituvchi muammoni qo'yadi va talabalarni uni hal qilishga yo'naltiradi
2-daraja	O'qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarning o'zlari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi
3-daraja	O'qituvchi muammoni qo'rsatib bermaydi, balki unga talabalarni ro'para qiladi. Talabalar muammoni anglagan holda uni o'zlari shakllantirib, muammoni yechish usullarini tahlil qiladi

Ta'lim jarayonida masalani qo'yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoyon bo'ladi. O'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishda muammoning qo'yilishi va hal etilishi quyidagi bosqichlarda kechadi:



Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish hokimiyat munosabatlarini amalga oshirishi tufayli boshqaruv ishi deb hisoblanadi.

Samaradorlik tushunchasi, garchi ijtimoiy munosabatlar jarayonida ko'p qo'llanilsada, boshqaruv nazariyasida eng kam ishlangan tushunchalardan biridir. Samaradorlikning umumiy nazariyasi mavjud bo'lmaganligi bois ushbu yo'nalishdagi barcha urinishlar hozircha kutilgan natijaga olib kelmadi. Faoliyatning turli sohalarida samaradorlikning o'z xususiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ammo ta'limda bugungi kunda bunday ko'rsatkichlar yo'q. Shunga qaramay, samaradorlik tushunchasi sifatga yo'naltirishda juda muhim va foydalidir. Vazifaning butun murakkabligini anglagan holda, boshqaruv samaradorligi nima ekanligini aniqlashga urinib ko'ramiz.

Samaradorlik haqida gapirishdan oldin faoliyat unumdorligi tushunchasini kiritamiz. O'ar qanday faoliyat ozmi-ko'pmi unumli bo'ladi. Unumdorlik - bu qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir.

Unumdorlikdan ko'pincha boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Garchi faoliyat unumdorligi bilan boshqaruv samaradorligi bir-biriga bog'liqligi shubhasiz bo'lsada, biroq ular bitta narsa emas. Ta'limning boshqa ta'lim muassasasiga nisbatan yuqoriroq natijalari ushbu ta'lim muassasasida boshqaruv sifati yuqori bo'lishidan har doim ham dalolat beravermaydi.

Masalan, ta'lim muassasasi ajoyib moddiy bazaga ega bo'lsa, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari hisobiga o'qituvchilarga boshqa ta'lim muassasalaridagiga nisbatan yuqoriroq ish haqi to'lay olsa, ushbu barcha ne'matlardan mahrum bo'lgan oddiy ta'lim muassasasidagiga qaraganda ta'lim sifati



yuqoriroq bo'lishini ta'minlashi mumkin. Lekin masala har bir ta'lim muassasasi o'zida mavjud imkoniyatlardan nechog'li yaxshi foydalanayotganligidadir.

Boshqaruv sifatini baholash aynan shu savolga beriladigan javobga bo'liq. Boshqaruv o'z vazifasiga ko'ra foydali natija olish uchun imkoniyatlardan to'liq foydalanishni ta'minlashi kerak. Ushbu vazifani qanchalik yaxshi uddalasa, u shunchalik samarador bo'ladi.

Boshqaruv samaradorligi deganda erishilgan va erishish mumkin bo'lgan unumdorlik o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi xususiyatni tushunamiz.

Bunday ta'rifni faoliyat ko'rsatishni boshqarishga nisbatan ham, rivojlanishni boshqarishga nisbatan ham ishlatsa bo'ladi. Lekin bu holatlarning har birida turli natijalar va turli xarajatlar hisobga olinishi kerak. Ta'lim muassasasi o'zi uchun ta'lim sifati iloji boricha yuqori darajada bo'lishini ta'minlay oladi (bu yuqori samaradorlik hamda faoliyat yuritishni boshqarishdan dalolat berishi mumkin), ammo ayni paytda u yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining salohiyatini kuchaytirish uchun ob'ektiv tarzda ta'limning mavjud imkoniyatlaridan foydalanmasligi mumkin. Bu ta'lim muassasasini rivojlantirishni boshqarish samaradorligi pastligidan dalolat beradi.

Ta'lim sifati - bu ta'lim jarayonining jamiyatdagi holati va natijadorligini, uning shaxsning fuqarolik, turmush va kasb sohalaridagi bilimdonligini rivojlantirishdan jamiyat (turli ijtimoiy guruhlar) ehtiyojlari va kutgan natijalariga muvofiqligini belgilovchi ijtimoiy kategoriya demakdir.

Ta'lim sifati ta'lim oluvchi yoshlarning xabardorligini rivojlantirishni ta'minlaydigan ta'lim faoliyatining turli jihatlarini, o'qitish mazmuni, shakllari va metodlarini, moddiy-texnika bazasini, kadrlar tarkibini va h.k. tavsiflovchi ko'rsatkichlar yig'indisi bilan belgilanadi.

«Bilimdonlik» («xabardorlik») termini menejmentda keng qo'llaniladi. Ammo uni ta'lim tizimida ishlatish u qadar ommalashmagan. O'quvchilar va talabalarga nimani berish maqsad qilib qo'yilganligini aniqlash uchun ko'pincha bilim, qadriyat yoki ishonch va e'tiqod tushunchalaridan foydalanib kelingan (hozir ham shulardan foydalanilmoqda).

Bilimdonlik (xabardorlik) tushunchasi bilim emas, balki mahorat sohasiga taalluqliligi ayondek tuyuladi. Bilimdonlik - bu ta'lim olish tufayli egallangan bilimlarga, tajribaga, mayllarga asoslangan umumiy qobiliyat. Bilimdonlik bilimlarga ham, ko'nikmalarga ham tayanmaydi, bilimdon bo'lish - olim yoki ma'lumotli bo'lishni bildirmaydi.

Inson xatti-harakatining cheksiz rang-barang hayotiy vaziyatlarga moslashtirilishi umumiy qobiliyat-shaxsiy hayotda egallangan bilim va orttirilgan tajribani umumiy tarixga mos tushadigan vaziyatda qo'llashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, bilimdonlik bilan mahoratni bir-biridan farqlay bilish kerak.



Mahorat - bu muayyan vaziyatda o'ziga xos harakat qilish demakdir. Bu bilimdonlik yoki qobiliyatning, ishga yanada umumiyroq tayyorgarlik ko'rilganlikning yoki o'ziga xos vaziyatda ish bajarish imkoniyatining qaror topishidir. Biroq mahoratni kuzatsa bo'ladi, bilimdonlik esa ish va mahoratni kuzatish orqali bilinadigan xususiyatdir.

Shunday qilib, mahorat harakatdagi bilimdonlik sifatida ifoda topadi. Bilimdonlikni mahorat, harakat keltirib chiqaradi.

Bilimdonlikka bilim bilan vaziyat o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyati, keng ma'noda olganda esa, muammoga mos bo'lgan jarayonni (bilim va harakatni) topish qobiliyati sifatida qarash mumkin.

O'ar qanday holatda ham bilimdonlik tushunchasini haddan tashqari soddalashtirishdan ogoh bo'lmoq lozim.

Mahoratni kuzatish sub'ektlar vaziyatlarga baxsh etadigan mazmunni, ular amalga oshiradigan talqinni inkor etolmaydi.

Bilim va ish o'rtasidagi munosabat masalasi ta'lim va pedagogikaning butun tarixi orqali kechadi. Masalan, tarix yo'l-yo'riq va predmetlar bo'yicha bilim berishga yo'naltirilgan ta'lim muassasasining o'quvchilarni ishga tayyorlashga aniqroq qilib aytganda, ularni hayotning turli sharoitlariga va holatlariga mos kelishi e'tirof etilgan intelluktal va amaliy bilimdonlikni namoyon etishiga layoqatsizligini ma'lum darajada ko'rsatdi.

Ta'lim amaliyoti, odatda, ko'proq o'qituvchi shaxsiga, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan va taqdim qilinadigan bilimlarni berishga, o'quvchilarning bunyodkorlik va bilimlarni egallash yo'lidagi faoliyatiga yo'naltirilgan. Yangi ta'lim konsepsiyalari duch kelgan istiqbol o'zgarishlarini amalga oshirishdagi qiyinchilik ishning boshlanishida talab etiladigan qayta qurishga qarshilik ko'rsatishdan kelib chiqishi mumkin.

Quyidagilarni muhim o'zgarishlar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi. Bilimdonlikka (yoki mahoratga) tayanish ta'limga ishlab chiqarish olamidani kirib kelgan. So'nggi o'n yilliklar mobaynida o'zining odam resurslarini baholash va boshqarish texnikasini birmuncha mukammallashtirdi va shakllantirdi. Korxonalar olami katta raqobatga va bilimlar hamda texnologiyalarning tez sur'atlar bilan o'zgarishiga duch kelib, ortib borayotgan sarmoyalarini inson kapitaliga yo'naltirdi. Yirik korxonalarda, menejmentning zamonaviy metodlariga muvofiq odam resurslarini boshqarish bo'limi doimo mavjud.

Ikkinchisi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq amalga oshirilayotgan ta'limni isloh qilish ta'lim mazmunini zamonaviylashtirish va ta'lim-kasb-hunar dasturlarini bilimlar taraqqiyoti bilan muvofiq holga keltirish jihatidan ayniqsa muhimdir.

Ustuvor yo'nalishlarni aniqlash jarayoni zarur va u ta'lim fanlari o'rtasidagi



raqobatdan yuqori turishi kerak.

Uchinchi. Yangi bilimlar vujudga kelishining jadallashishi va ayrimlarining eskirishi endilikda bir qancha avlodlar tajribasiga mos tushmoqda va kishilar ushbu tamoyilning uzluksizligi istiqbolliligiga keng ko'lamda ko'nika boshladilar. Kelgusi avlodlar hozirgilarga qaraganda ko'proq, ya'ni butun umr o'qishi kerak, degan ishonch mustahkamlanib bormoqda. Boshlang'ich tayyorgarlik har bir insonni qobiliyatli qilishi va shunday bo'lishini istaydigan qilishi borasida talab kuchayib bormoqda. Bu kadrlar tayyorlash milliy dasturi g'oyalari va qoidalari bilan tasdiqlangan.

Umumta'lim tayyorgarligi, ta'limning madaniyatni tarkib toptiruvchi funksiyasini amalga oshirishning ustuvorligi - bu bugungi va ertangi kun strategiyasi, «o'qishni o'rganish» va «butun umr bo'yi ta'lim olish» kabi prinsiplarni amalga oshirish demakdir. Ayrim sharoitlarda kasbiy faoliyat, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayot kabi, bir mahallar ozchilikning chekiga tushgan intellektual ish vositalarini ko'proq egallashni muayyan tarzda taqozo etadi.

To'rtinchi. Ta'lim tizimida amaliyotda yuz berayotgan o'zgarishlar sur'atining qoniqarsizligi ta'lim tizimlarini boshqarish va ularni tartibga solish usullari sekin o'zgarayotganligidan kelib chiqadi. Bunda qo'yilgan maqsadlar bilan boshqaruv usullari o'rtasida muayyan qarama-qarshilikni ko'rish mumkin. Kundalik boshqarish va tartibga solish shakllari darajasida qoidalariga nisbatan maqsadlarga; o'qituvchilarga nisbatan o'quvchilarga kamroq e'tibor beriladi. Shu nuqtai nazardan olganda, o'quv dasturlari bilan yuz bergan hodisa ibratlidir. Bu o'qituvchilarning o'qitishga doir faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, byurokratik ko'rsatmalar va tavsiyalarga aylanib ketish tamoyiliga ega. Ularning bajarilishini tekshirish mumkin bo'lib, normal ta'lim faoliyati davomida (o'qituvchi o'z dasturini bajargan-bajarmagani, o'quvchilar tushuncha va bilimlarga ega bo'lgan-bo'lmagani) tekshirib boriladi.

Zarur va istalgan deb topilgan bilimdonlik ro'yxati cheksiz ortib boradi hamda hayot uchun zarur deb hisoblanayotgan bilimlar kabi qadrsizlanadi, degan xavf mavjud. Bunda umumiy bilimdonlik haqida xulosa chiqarish uchun bir necha dalillar yoki natijalarni aniqlashning o'zi yetarli emas.

Ta'lim muassasalari hozirgi sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni, ta'lim tizimini rivojlantirishdagi ishning ahvolini hisobga olgan holda yosh avlodni qurollantirishi lozim bo'lgan eng ma'qul bilimdonlikni aniqlashi lozim. Bizningcha, quyidagilarni shunday bilimdonlik sirasiga kiritish mumkin:

1. Siyosiy va ijtimoiy bilimdonlik - bu mas'uliyatni o'z zimasi olishga, qarorlarni birgalikda qabul qilishda ishtirok etishga, nizolarni zo'ravonliksiz hal qilishga, demokratik institutlarning faoliyat yuritishi va ularni yaxshilashda qatnashishga qodirlik.



2. Ko'p madaniyatli jamiyat hayotiga taalluqli bilimdonlik. Irqchilik yoki ksenofobiyaning vujudga kelishiga, toqatsizlik muhiti tarqalishiga to'sqinlik qilish uchun ta'lim sohasi yoshlarni tafovutlarni tushunish, bir-birini hurmat qilish, boshqa madaniyatlar, tillar va dinlarga mansub odamlar bilan birga yashash qobiliyati kabi umummadaniy bilimlar bilan qurollantirishi kerak.

3. Og'zaki va yozma muloqotni egallashga taalluqli bilimdonlik kasbiy va ijtimoiy hayotda shu darajada muhimki, bunday fazilatga ega bo'lmaganlarga jamiyatdan chiqib ketish xavfi tug'iladi. Muhim ahamiyat kasb etib borayotgan bir qancha tillarni va axborot texnologiyalarini egallash muloqotning ushbu guruhiga kiradi.

4. Axborot jamiyati vujudga kelishi bilan bog'liq bilimdonlik. Bu - yangi texnologiyalarni egallash, ularning qo'llanilishini, kuchi va zaif tomonlarini anglab yetish, OAV kanallari orqali tarqatilayotgan axborot va reklamaga tanqidiy munosabatda bo'lishga qodirlik demakdir.

5. Kasbiy jihatdan, shuningdek shaxsiy va ijtimoiy hayotda uzluksiz tayyorgarlik ko'rish negizi bo'lmish butun umr o'qib-o'rganish qobiliyati.

Ta'lim tizimlarini isloh qilish sabablari va omillari keyingi yillarda chop etilgan ilmiy ishlar turkumida batafsil va asosli tahlil qilingan (R.Ahmidinov, R.Jo'raev, U.Inoyatov, Sh.Qurbonov, M.Quronov, X.Rashidov, E. Seytxalilov, D.Shodiev, N.Nishonaliev va boshqalar). Bunda ta'lim-kasb-hunar dasturlari mazmunining qayta ko'rib chiqilishini tavsiflaydigan uch yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish o'quv dasturlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq. Bunda maqsad dasturlarni zarur deb hisoblangan yangi elementlar bilan to'ldirishdan iboratdir.

Aniq fanlar sohasida, xususan, informatika, atrof-muhitni o'rganish yoki texnologiyalarni rivojlantirish va ularning ta'siri bilan bog'liq bilimlarni kiritish bugungi kunda shu tariqa zarur deb hisoblanmoqda.

Kamchiliklar, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasida ham aniqlanmoqda. Agar yosh yigit ekologik huquqiy, sotsiologik, psixologik va boshqa fanlarni o'zlashtirmasa, bu qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi barchaga ayondir. Tarix, adabiyot va til, jamiyatshunoslik, geografiya, ma'naviyat asoslari kabi fanlar vaqti-vaqti bilan ta'lim mazmuni va metodlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini taqozo qilmoqda. Ta'lim tizimi javob berishga odatlanmagan masalalar, tarixiy voqealar yoki jamiyatning rivojlanishi natijasida kutilmaganda yuzaga keladi va tez hal etishni talab qiladigan muammolarni vujudga keltiradi.

Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi ahamiyati tug'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridanoq bildirilgan.

Kishilarning jamiyatda birga yashashi, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashi, ozchilikdan-ko'pchilikning afzalligi hakida payg'ambarimiz S.s.a.v.ning hadislarida:



«Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, to'rt kishi uch kishidan yaxshi, ko'pchilik bilan birga bo'linglar. Tangri ummatlarini faqat to'g'ri yo'lda borishlikka birlashtiradi», - deyilgan. Kishilarning boshiga yaxshi kun ham, yomon kun ham tushganda albatta maxalla, karindosh-urug' madadkor bo'ladi. Buni biz urf-odatlarimizda ko'rishimiz mumkin. M: hasharlar, to'yga tuyona bilan kelish va hakazo.

Hamkorlik strategiyasi pedagogik jihatdan o'quv jarayonini samarali boshqarish san'atini anglatadi. Insonparvar pedagogikada o'qituvchi har doim o'z strategiyasining muallifi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bunday mualliflik tasodifiy ko'rinishga ega emas. Bunda kasbiy mahorat ko'p darajada zaruriyatdan kelib chiqqan holda tanlash ko'nikmasiga asoslanadi. Bunday ko'nikmalarni namoyon qilish uchun o'qituvchi juda katta pedagogik bilim va mahoratga ega bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar pedagogikada mavjud tajribalar ustida ijodiy fikrlashlari, shubhalarga o'rin qoldirmasliklari, ilg'or pedagogik qarashlarni o'zlashtirishlari va o'z faoliyatlariga tatbiq eta olishlari, kasbiy faoliyatlarini shaxsga yo'naltirilgan vaziyatlarda o'quvchilarga ko'maklashishga qarata olishlari zarur. Xuddi mana shu tarzda o'qituvchining o'quv materiallari va o'quvchilarga nisbatan shaxsiy munosabati, taktikasi tarkib topadi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari o'qituvchi pedagogik faoliyatining yuqori darajada istiqbolga yo'naltirilgan shaklidir. U metodologik xarakterdagi kasbiy ko'nikmalarda namoyon bo'ladi. Jumladan: mavjud hodisalarni chuqurroq anglash, uning haqiqiy mohiyatini tushunish, aniq va yashirin sabablarini anglab yetish, nazariya va amaliyot orasida munosabat o'rnatish, jarayon maqsadini aniqlash, o'quv-tarbiya vazifalarini muayyan prinsiplarga asoslangan holda oydinlashtirish, pedagogik hamkorlik shartlari va vositalarini tanlash imkonini beradi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari qo'llanadigan usullarning samaradorligini ta'minlab, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan bevosita munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi. Pedagogik hamkorlik strategiyalari o'qituvchilarning kasb mahoratini oshirishga yo'naltirilgan yopiq xarakterdagi bilish jarayonlarida kasbiy ongning faoliyatga asoslanmagan shakllarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari yordamida o'qituvchilarning pedagogik ongi oddiy, to'g'ridan-to'g'ri, tezkor va tashqi tomondan samarali bo'lgan vositalar orqali o'quvchilar ongiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatda ongning faoliyati qo'zg'almaydi, balki hissiy ta'sirlar amalga oshadi. Shuning uchun ham o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishdagi istiqbolli yo'nalishlardan biri ularning shaxsiy ongini pedagogik hamkorlik strategiyalari bilan boyitishdan iborat. Buning uchun o'qituvchilarning tanqidiy, yo'naltiruvchi, fikriy-ijodiy, nazariy-tahliliy ongini rivojlantirish nazarda tutiladi. Xuddi shunday kasbiy ongga ega bo'lgan o'qituvchilar faoliyati orqali pedagogik ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Chunonchi:



- a) pedagogik ta'sirning qimmatini aniqlash;
- b) o'quvchilar bilan munosabatda o'z mavqeiga ega bo'lish;
- v) dialogning ahamiyatini tushunib yetish;
- g) o'quvchilarning shaxsiy o'ziga xosliklarini anglash kabilar.

Chunki bularning barchasi o'quvchilarga beriladigan ta'lim-tarbiyaning mohiyati, mazmuni hamda yo'nalishlarini oydinlashtirish imkonini beradi.

Hamkorlikdagi pedagogik jarayonning asosiy qadriyati o'qituvchi tomonidan ta'minlanadigan o'quvchilarda o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish, rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishdan iborat. O'qituvchilar hamkorlik strategiyalari yordamida o'quvchilar ongiga ta'sir ko'rsatish vositalarini tanlaydilar.

Ta'lim strategiyalari insoniy mohiyat kasb etadi. Chunki pedagogik strategiyalar pedagogik faoliyat turi sifatida o'qituvchi shaxsiyati bilan bevosita bog'liqdir. Ta'limning gumanistik strategiyalari o'qituvchi kasbiy faoliyatining dasturi hisoblanadi. U o'qituvchi shaxsining o'zligini kasbiy faoliyat jarayonida namoyon etishini ifodalaydi.

Ta'lim bozorida raqobat sharoitida strategik rejani ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. TMga faoliyatning umumiy yo'nalishi yetishmaydi. Strategik reja, muhim muammolar (bosh maqsad, iste'molchilarning talablari, muvaffaqiyatga eltuvchi yo'llar), ijobiy va salbiy omillar, istiqbollar va omadsizliklar tahlil qilingandan keyin, shuningdek, muvaffaqiyatning tanqidiy omillari aniqlangandan so'ng hal qiluvchi masalalar doirasini belgilab berishi lozim.

Rejalashtirishning ta'lim muassasalari o'z xizmat sohaslarini va ushbu xizmatlarga ehtiyoj sezgan bozorlarni aniqlagandan so'ng, foydalanishi mumkin bo'lgan bir qancha strategiyalari mavjud.

Ta'limdagi strategik rejalashtirish jarayoni fanda, ishlab chiqarishda va umuman jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni ko'zgudagidek aks ettiradi. Unda asosiy vazifalar va maqsadlarni aniqlash, kuchli va zaif tomonlarni, imkoniyatlarni va tahdid soluvchi xavf-xatarlarni tahlil qilish uchun foydalaniladigan omillar ta'lim sohasiga ham joriy qilinadi.

Strategik rejalashtirish uzoq muddatli ustuvor jihatlarni shakllantirishga imkon beradi va oqilona o'zgarishlarga ko'maklashadi. Muassasa strategiyaga ega bo'lmay turib, yangi imkoniyatlardan juda yaxshi foydalanish uchun maqbul vaziyatda ekanligiga ishonch hosil qila olmaydi. Strategik rejalashtirishning yetakchi maqsadlari ta'lim muassasasini rivojlantirishning muayyan vaqt oralig'iga mo'ljallangan umumiy dasturini ishlab chiqish bilangina emas, balki ushbu ta'lim muassasasi ko'rsatadigan ta'lim xizmatlarining eng muhim yo'nalishlarini, shuningdek, bu yo'nalishlarning iste'molchilar ehtiyojlariga nechoqli mosligini tushunib olish va ularni qayta ko'rib chiqish bilan ham belgilanadi.

Strategik rejalashtirishda odatda, muhim muammolarning ma'lum bir majmuini



ishlab chiqishga alohida ahamiyat beriladi. Ularning ro'yxati quyidagicha bo'lishi mumkin:

Garchand nazariyadan amaliyot sari ishlash oqilona yo'l bo'lsada, strategik rejalashtirishga kirishayotib rioya qilish lozim bo'lgan xatti-harakatlar majburiy izchilligi mavjud emas. Biroq kelajakni rejalashtirishda tizimli yondashish nihoyatda muhim. Strategiya iste'molchilarning turli guruhlariga ehtiyojlariga tayanishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda bosh maqsadni belgilab beradigan hamda umuman nuqtai nazarni kengaytiradigan siyosat va rejani tuzish zarur.

Strategik rejalashtirishda harakatlarning muayyan izchilligi bo'lishi mumkin.

Strategik rejalashtirish tashkilotning o'z maqsadlariga maqbul darajada erishish uchun qo'llaniladigan harakatlar yig'indisidir.

Strategik rejalashtirishning mohiyati tashkilotning maqsadlariga erishishga qaratilgan o'ziga xos strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Menejmentga tatbiqan strategiya tashkilotning maqsadlariga maqbul darajada erishishni ta'minlaydigan har tomonlama majmuini rejalashtirishni bildiradi.

Strategik rejalashtirish boshqaruv faoliyatining to'rtta asosiy turini: resurslarni taqsimlash; tashqi muhitga moslashish; ichki muvofiqlashtirish; oldindan ko'ra biladigan uyushgan strategiyani ko'zda tutadi.

Strategiyaning birinchi turi - qiymatiga ko'ra birinchilik strategiyasi. U muassasadan o'z bozorida qiymatiga ko'ra eng arzon bo'lishni talab qiladi.

Muassasa bunga texnologiyalardan ekstensiv foydalanish, ko'lamni qisqartirish, xarajatlarni qat'iy nazorat qilish va hokazolar evaziga erishishi mumkin. Bu strategiyaning afzalligi shundan iboratki, resurslarni iste'molchi nuqtai nazaridan tushuniladigan sifat uchun tanqidiy bo'lgan jihatlarga yo'naltirishga imkon beradi. Biroq arzonchilik o'z-o'zidan muvaffaqiyatni kafolatlamaydi.

Ko'pchilik iste'molchilar sifat uchun haq to'lashga rozi. Sifatni past narxlar qurboniga aylantirish mumkin emas. Birinchi qarashda, bepul ta'lim sohalarida bunday strategiya nomuvofiqlikdek tuyuladi. Ammo, xarajatlarni qat'iy nazorat qiladigan yoki taklif etilayotgan xizmatlar ko'lamida tejamkorlik qiladigan TM, o'z ixtiyoricha sarflaydigan qo'shimcha mablag'ni bo'shatib olishi mumkin. Mablag'larni samarali taqsimlash natijalari shu TMning raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Strategiyaning ikkinchi turi - tabaqalashtirish - ta'lim muassasasi o'z raqiblaridan farqli ravishda, qaysidir belgilariga ko'ra, nodirligini nazarda tutadi. Tijorat bozorida bu hol kompaniyaga yuqori narx belgilashga imkon beradi. Ta'limda esa muassasa erishgan yutuq faqat qo'shimcha jalb qilingan o'quvchi va talabalar bo'lishi mumkin. Shuningdek, muassasa o'zining o'xshashi yo'qligi, noyobligi bilan muqobil manbalarni o'ziga jalb qilishi mumkin. Bu strategiyani tanlagan muassasa uchun sifat hayotiy zaruratdir, chunki nodirlikka da'vo qilgan




muassasalar sinchiklab tekshirilishi muqarrar.

Bozor strategiyasining ehtimol tutilgan uchinchi turi - fokusli strategiya. Bu diqqat-e'tiborni ma'lum bir geografik manzil, iste'molchilar guruhi yoki bozor segmentiga qaratishni nazarda tutadi.

Bu bozor segmentatsiyasi bo'yicha tabaqalashtirish strategiyasidir. Muassasa shunday yo'naltirish bilan dasturlarini ajratilgan guruhlarining talablariga raqiblariga nisbatan qattiqroq bog'lashga intiladi. Boshqa strategiyalarni qo'llashdagi kabi, bu strategiyaning ham maqsadi raqobatbardoshlikni oshirishdan iboratdir. Ammo u butun bozor doirasida o'z imkoniyatlaridan mahrum bo'lish evaziga qo'llaniladi. Bu strategiyada yana sifat keng ko'lamda zarur bo'ladi. Agar sifat iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirsagina yo'naltirilganlik ish berishi mumkin.

O'zaro pedagogik hamkorlik jarayonida vujudga keladigan ziddiyatlarni quyidagi strategiyalar yordamida yechish mumkin:



Hamkorlik har ikkala tomonning o'zaro munosabatlari va majburlamaslik prinsipiga asoslanadi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi barcha uchun umumiy bo'lgan muammolarni birgalikda muhokama yo'li bilan yechishdan iborat. Pedagogik hamkorlik jarayonini rivojlantiruvchi strategiyalar ichida eng samaradorlari o'zaro kelishuvga asoslangan strategiyalar, hamkorlik strategiyalari, chekinish va moslashish strategiyalaridir. Qo'llaniladigan strategiyalarning muvaffaqiyati hamkorlik jarayonining muayyan darajada insonparvarlik prinsiplariga tayangan holda amalga oshirilishiga bog'liq. Bunda hamkorlik jarayoni ishtirokchilarining qiziqishlari, ehtiyojlari, tayanadigan qadriyatlarini aniq hisobga olish talab etiladi.

Inson tabiatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, har bir o'quvchida o'ziga xos iqtidor va talant mavjud. Bu iqtidor va talant ota-onalar va o'qituvchilar bilan samarali



hamkorlik natijasida ro'yobga chiqadi. Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi muayyan shart-sharoitni vujudga keltirganda o'quvchilardagi iqtidorni ro'yobga chiqarishga muvaffaq bo'ladi.

Hamkorlikdagi ijodiy pedagogik jarayonni tashkil qilishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat o'quvchilarning badiiy ijodiy layoqatlarini ochishga xizmat qilib, bunda ularning ijodkorlik hamda yaratuvchilik layoqatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Bunday faoliyat hamkorlik xarakteriga ega bo'lib, o'quv jarayonining tarkibiy qismini tashkil etishi kerak. Shunga ko'ra hamkorlikdagi pedagogik jarayonni loyihalash va tashkil etish o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilar bilim olish jarayonida voqelikni o'rganadilar, anglab yetadilar va ijod qiladilar, yaratadilar. Ijodiy yaratuvchilik jarayoniga o'quvchilar o'ziga xos tarzda yondashadilar. O'qituvchi esa ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijod qilishlari uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchining muhim vazifalaridan biri – o'quvchilar bilan hamkorlik qilish, ularni samarali qo'llab-quvvatlash va ko'maklashishdan iborat.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda o'quvchilarning o'zlari ularning ijodiy faoliyatlari va yaratuvchilikka intilishlarini qo'llab-quvvatlash yo'llarini o'qituvchiga ko'rsatadilar. O'quvchilarning o'ziga xosliklarini qo'llab-quvvatlash uchun dastlab o'qituvchilar ular va ota-onalariga yo'naltiruvchi maslahatlar berishi lozim. Bu ko'mak va maslahatlar asta-sekin tizimli pedagogik hamkorlik va o'zaro yordam tusini olishi kerak.

Ta'lim bilan o'quvchilarning ruhiy rivojlanishi orasidagi mutanosiblik hamkorlikdagi o'quv faoliyati orqali ta'minlanadi. Chunki o'quv jarayoni pedagogik jihatdan maxsus yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda o'quvchilar hamkorlikdagi birgalikdagi o'quv faoliyatini amalga oshiradilar.

Ular o'quv harakatlarini aniq o'quv predmeti doirasidagi o'quv materiallari yordamida bajaradilar. O'quvchilarning ruhiy rivojlanishlari asosida ularning tashqi faoliyatlari bilan bog'liq harakatlari ichki rivojlanish imkonini beradi. Shu asosda ularda kognitiv faoliyat tajribasi, tafakkur, idrok rivojlanadi. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilarda bilish qiziqishlari shakllandi. Demak, o'quvchini rivojlantirish, birinchi navbatda, uning hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etishni talab qiladi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga yo'naltirish ularning taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'la oladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi hamkorlikni o'rnatishda pedagogning nutqi asosiy o'rin egallaydi. Chunki o'qituvchining nutqi o'zaro muloqot va hamkorlikning verbal ko'rinishdagi tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, noverbal muloqotning turli yo'nalishlari



ham pedagogik hamkorlikning muhim vositasi sifatida xizmat qilishini mutaxassislar ta'kidlamoqdalar.

O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatlarda ular orasida bilish va asabiy baholash xarakteridagi axborot almashinib jarayoni kechadi. Bunday axborotlarni o'zaro bir-biriga uzatish verbal hamda noverbal usullarda amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikka kirishar ekan, axborotlarning ma'lum qismini ularning yuz ifodasi, xatti-harakatlari, ko'z qarashlaridan anglab oladi. Xatti-harakatlar, ko'z qarashlar, qiyofadagi ifodalar so'zdan ko'ra ko'proq anglashimlilik xarakteriga ega.

Muloqotning noverbal yo'nalishlari o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni tartibga solish, o'zaro aloqa o'rnatishda muhim o'rin egallaydi. Bu esa ham o'qituvchilarning, ham o'quvchilarning hissiy kechinmalari va holatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, pedagogik muloqotning mazkur yo'nalishi mutaxassislar tomonidan yakka tartibda o'rganilgan. Tajribali o'qituvchilar uchun bu holatni hisobga olish o'quvchilar bilan hamkorlik o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining qanday turishi, qanday o'tirishi, ovozini qay darajada ko'tarishi, tabassumi, ko'z qarashlari o'quvchilarning u bilan hamkorlikka kirishishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Noverbal muloqot vositalariga so'nggi yillarda pedagoglar tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina o'qituvchilar hanuzgacha uning mohiyatini to'laligicha anglab yetmaganlar. O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida noverbal muloqot bir qator yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- xatti-harakatlar yordamida;
- dahldorlik asosida;
- jestlar, ohanglar yordamida;
- muloqotdagi masofa orqali;
- vizual xarakterdagi o'zaro hamkorlik vositasida.

Biz o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari doirasida noverbal muloqotning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga harakat qildik. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida nutqning noverbal vositalari muhim o'rin egallashiga ishonch hosil qilish mumkin. O'qituvchi o'z ishini yengillashtirish uchun o'quvchilar bilan so'zlashmasdan turib ham muloqotga kirishishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi nafaqat o'quvchilarning nutq ohangiga balki har bir ishorasi, ko'z qarashlari, harakatlariga e'tibor qaratib shu asosda o'zining ham noverbal vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib borishi lozim.

O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda hamkorlikdagi vaziyatlarni tashkil etish metodidan foydalanish samaralidir. Hamkorlikdagi pedagogik vaziyatlarni tashkil etish metodi innovatsion metod sifatida alohida pedagogik



qimmatga ega. Bu metod yordamida o'quvchilarda muloqotga kirishuvchanlik, ishchanlik, yetakchilik, keng ko'lamli, aniq izchillikka ega bo'lmagan materiallarni tartibga solish va tahlil qilish, axborotlar yetarli bo'lmagan sharoitlarda ularni to'ldirish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati vujudga keladi.

Hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga keltirish metodi o'quvchilarni tabiiylikka intilishga chorlaydi. Shu tariqa hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga keltirish metodi quyidagilarni taqozo etadi:

- Verbal muloqot vositasida hamkorlikdagi vaziyatlarni bayon qilish;
- muayyan vaziyatlarni mustaqil o'rganish va sinfdoshlari bilan muhokama qilish;
- o'quvchilarning vaziyatlarni birgalikda muhokama qilish jarayonlarini o'qituvchi tomonidan boshqarish;
- muhokamalar jarayonida o'quvchilarga muamolarning yechimlarini topish zarurligini anglatish kabilar.

Hamkorlik vaziyatlarida o'quv harakatlarini amalga oshirish uchun o'quvchilarning faolliklariga e'tibor qaratish asosida ularning diqqatlarini aniq voqelikni tushunish va muhokama qilishga jalb etish lozim. Bu shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'quvchilar mustaqil ishlash va tashabbus ko'rsatish tajribasini egallaydilar.



IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.

1-amaliy mashg'ulot: Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizimini joriy etish. (2soat)


Reja:

1. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni."Qaror qabul qilish texnologiyasi"
2. Ta'limga oid "Tushunchalar tahlili" uslubi

Mashg'ulotning borishi

1-topshiriq. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni mavzusida. "Qaror qabul qilish texnologiyasi". Grafik organayzeri yordamida bahs-munozara tashkil etish.

Tinglovchilarga quyidagi ish qog'ozi taqdim etiladi:



2- Topshiriq. Ta'limga oid "Tushunchalar taxlili" uslubi

	Mazmuni
Innovatsiya	
Texnologiya	
Modernizatsiya	



Modul	
Loyixa	
Defferensiya	
Masofa	
Rivojlantirish	
Ta'lim	
Tarbiya	
Madaniyat	
Konstruktiv	
Xamkorlik	

2- amaliy mashg'ulot: Maktabgacha ta'limning pedagogik jarayoniga innovatsion yondashuv. (4-soat)

Reja:

1. Bo'lajak maktabgacha ta'lim o'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligini tarkib toptirishga oid Blis-so'rov
2. Mavzu yuzasidan blis-so'rov savollariga javob berish.
3. Pedagogikaning asosiy tushunchalari.

Mashg'ulotning borishi.

1-topshiriq. Bo'lajak maktabgacha ta'lim o'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligini tarkib toptirishga oid blis-so'rov savollari.

1. O'qituvchilarining eng buyuk burchi – uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir.
2. o'qituvchi yosh avlodni halkimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi.
3. o'qituvchilarining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun halq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashi, ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishi, ijodiy yondoshishi, o'z mahoratini ko'rsata olishi, hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashi.



	etishga tayyorlanish										
2)	odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik										
3)	mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish qobiliyatiga egalik										
4. Texnologik kompetentlik											
1)	kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga egalik										
2)	zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, o'quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik										
5. Ekstremal kompetentlik											
1)	favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo'lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										
2)	muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										

**Mashg'ulotning yakuni**

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

3-topshiriq. Pedagogikaning asosiy tushunchalari

<i>Pedagogikaning asosiy tushunchalari</i>		
Tarbiya	Ta'lim	Ma'lumot
Pedagogik hodisa bulib, yosh avlodga ilmiy bilimlar sistemasini, malaka va ko'nikmalarni maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib borish va uning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.	Ijtimoiy zarur bilimlar, muayyan ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga singdirish, ularning ongiga, xulqiga ta'sir etish, dunyoqarashi va bilish faolligini rivojlantirishdir. U insonni mehnatga, hayotga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ta'lim berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi amalga oshiriladi. Ta'lim ikki tomonlama jarayon - o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.	Asosiy pedagogik tushuncha bo'lib, uning ijtimoiy hayot voqealarini ob'ektiv aks ettirishdir. Ma'lumot kishini bilishga bo'lgan talabini ta'minlab, undagi qobiliyatlarni ma'lum darajaga ko'taradi va amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Ma'lumot ta'limning natijasi bo'lib, u kishi tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustaqil egallashdir.
O'qitish – pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim ko'nikma va malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilim va amaliy faoliyatiga rahbarlik kilishdir.		
O'qish – bolalarning bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashdagi amaliy faoliyatidir. U o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.		

Izoh....



3-amaliy mashg'ulot: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi dasturlar asosida ishlay oladigan kadrlarni sifatini oshirish. 2-soat

Reja:

1. Oliy ta'lim mutaxassislarining mavzuga oid ilg'or ish tajribalarini o'rganish.
2. Tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish.
3. Kasbiy faoliyatga taalluqli ob'ektlarning umumiy belgilarini topish.
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar bilan o'tkaziladigan treninglar.

Mashg'ulotning borishi

1-topshiriq. Oliy ta'lim mutaxassislarining mavzuga oid ilg'or ish tajribalarini o'rganish. Tajribali professor-o'qituvchi yoki mutaxassis faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasasining maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi dars-mashg'ulotlarini kuzatish, o'rganish va tajriba almashish. "Mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari" mavzusi bo'yicha mutaxassis tomonidan tashkil etilgan seminar-treningda ishtirok etadi.

Mashg'ulot "*Mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari*" moduli doirasida, talab darajasidagi moddiy-texnika bazaga ega va ilmiy-uslubiy jihatdan tajribali professor-o'qituvchilar va mutaxassislar faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik kafedralari, ilmiy-tekshirish institutlari va boshqa ta'lim muassasalarda tashkil etiladi. Oliy ta'lim mutaxassislarining mavzuga oid ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida o'zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish, kasbiy sifatlarini rivojlantirish.

2-topshiriq. Tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish.

Tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida o'zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish, kasbiy sifatlarini rivojlantirish, zamonaviy mashg'ulot o'tishning metod va usullari, ishlanmalaridan foydalanish. Mutaxassislik modullaridan ochiq mashg'ulotlarni kuzatish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, muhokama qilish va baholash. Ochiq, ko'rgazmali, namunaviy mashg'ulotlar va ularga qo'yilgan talablar asosida tahlil qilish.

Mazkur mashg'ulotlar talab darajasidagi moddiy-texnika bazaga ega va ilmiy-uslubiy jihatdan tajribali professor-o'qituvchilar va mutaxassislar faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik kafedralari, ilmiy-tekshirish institutlari va boshqa muassasalarda hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'chma mashg'ulot (ochiq mashg'ulotlar) tarzida o'tkaziladi. Unda o'tkazilgan mashg'ulotni tegishli mezonlar asosida tahlil qilish orqali tarbiyachilarning ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish tashkil etiladi. Bu jarayonga ko'chma mashg'ulot tashkil qilingan ta'lim muassasasi tarbiyachilarini



jalb etish, ularning mashg'ulotlarini tahlil qilish orqali ularga metodik yordam ko'rsatish ham ko'zda tutiladi. Mashg'ulot natijasi sifatida ochiq mashg'ulotni kuzatish va tahlil qilish varag'i to'ldiriladi va malaka ishiga ilova qilinadi.

3-topshiriq: Ob'ektlarning umumiy belgilarini topish. Kasbiy faoliyatingizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan 2 ta ob'ektni oling. Quyidagi jadval asosida ularga taalluqli o'zaro o'xshash jihat (belgi)larni topishga harakat qiling.

Namuna

Bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan ob'ektlar	
Pedagogik faoliyat	Teatr

4-topshiriq: Ota-onalar bilan o'tkaziladigan treninglar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar uchun treninglar, munozaralar, testlar, topshiriqlar, savol nomalar, interfaol metodlar vaqti- vaqti bilan o'tkazilib turilsa, ayniqsa, maktab yoshidagi 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalarning ishtirokida olib boriladigan har bir mashg'ulotlar farzandlarining nimaga qodir ekanligini anglab olishlariga yaqindan yordam beradi va bolalarni maktabga tayyorlashda oila a'zolarining mas'uliyati oshardi.

Ta'lim muassasalarida ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan har bir munozaralar bolalarni maktabning ilk bosqichiga qadam qo'yishlarini silliqlik bilan o'tishida yordam beradi hamda sog'lom bola va mustahkam sog'lom muhit sharoitini yaratishga imkon beradi.

Treninglar maktabgacha ta'lim muassasa uslubchisi, maktabgacha tayyorlov gurux tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari, boshlang'ich sinif o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi.

Ota-onalarga: «Sizning bolangiz yaqinda yetti yoshga to'ladi. Uning hayotida yangi tartibli, rejaga asoslangan ta'lim boshlanib, u bolangizni har tomonlama sog'lom, tetik, mustaqil shaxs sifatida voyaga yetishida zamin yaratish bosqichlariga aylanadi» deb murojat etiladi.

Maktab ostonasiga birinchi qadamini qo'yar ekan sizning bolangiz hayotida o'chmas, esda qoluvchi damlar boshlanadi, deb savolnomalar tarqatiladi va yozma ravishda javob berilishini iltimos qilinadi.

1. Sizning bolangizda maktabda o'qishga moyillik bormi?
2. Sizningcha bola maktabga tayyorgarlikni oilada oladimi?



3. Maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun nima zarur?
4. Jismoniy sog'lom bo'lishi uchun nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?
5. Shaxsan sizning bolangiz maktabgacha ta'lim muassasasidan so'ng maktab sharoitiga moslashishi uchun nimalarga etibor qaratar edingiz?
6. Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab ta'limi o'rtasidagi farqlarni bolangiz ongiga singdira olasizmi?
7. Maktab hayotidagi qonun-qoidalarni bilishi va unga amal qilishiga yordam bera olasizmi?
8. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan qanday talab va istaklaringiz bor?
kabi savollarga javoblar olingandan so'ng munozarani olib borish uchun ota-onalarga topshiriqlar beriladi:
 - ota-onalarning maktab bo'sag'asidagi tashvishlari qay darajada ekanligini aniqlash,
 - maktabga bolalarni har tomonlama tayyorlash uchun ota-onalarni qiziqtirgan kitoblarning mavjudligi,
 - bolani sog'lom muhitda tengdoshlari bilan o'rtoqlashishga ko'maklashishi.
 - o'qish va sanashni bilish darajalarini aniqlashga yordam berish.
 - bolalarni intizomli, tartibli, chidamli va mustaqil fikirlashga undash.Ota-onalar topshiriqlar yuzasidan o'zaro munozara qilganlaridan so'ng ularning fikr va mulohazalarini tinglash hamda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularni sog'lomligiga katta e'tibor qaratish, jismonan va aqlan rivojlantirish mas'uliyatini yuklash, muassasalar bilan hamkorlikda ish olib borish vazifalarini bajarishdan iboratligi tushuntiriladi hamda ta'limning keyingi turi - boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishga yo'naltiriladi.

4-amaliy mashg'ulot: Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarini shakillantirish texnologiyasi. (4-soat)

Reja:

1. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasini qo'llashda "INSERT" usulidan foydalanish.
2. Multimedia texnologiyalarini tatbiq etishda «Nima uchun?» texnikasidan foydalanish.

Mashg'ulotning borishi:

1-topshiriq: Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarini shakillantirish texnologiyasini qo'llashda "INSERT" usulidan foydalanish. Samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib o'rganishga yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari kitob va boshqa materiallar oldindan



tinglovchiga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib "V"; "+"; "-"; "?" belgilar orqali o'z fikrini ifodalaydi.

(V)- Men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)- Yangi ma'lumot

(-)-Men bilgan narsaga zid.

(?)-Meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.


"Insert" jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarini shakillantirish texnologiyalari				
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarini shakillantirish ahamiyati				
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kreativliligi				

2-topshiriq: Tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish.

«Nima uchun?» texnikasidan foydalanish.

«Nima uchun?» texnikasining sxemadagi ko'rinishi



«Nima uchun?» texnikasi sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday **Tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalaridan** qanday foydalanasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko'rinishi qanday bo'lishini o'zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo'nalishini ko'rsatishi lozim.



V. KEYSLAR BANKI

“**Keys-stadi**” texnologiyasi (ingliz tilida “case” – to‘plam, chemodan (chamadon), “study” – muammoli vaziyat) – vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish demakdir. Ushbu texnologiya talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi

1. Keys bayoni.

1-Keys topshirig‘i: Tarbiyachilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish

Keys bayoni

Gurux baxosi	Gurux xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baxosi	Muomolar yechimi
					Tarbiyachining ish faoliyatini belgilash
					Tarbiyachining ish rejasini tuzish
					Tarbiyachining ilg‘or ish tajribalarini maqsadini belgilash
					Ish mazmunini tanlash
					Tarbiyachining ish joyini jixozlash xamda kerakli texnikani tayyorlash
					Ish mavzusini tanlash va uning ishlanmasini yozish
					Bajariladigan ishni taqsimlash
					Tarbiyachining ilg‘or ish tajribalarini eng qiziqarli, ta’sirli nuqtalarini tanlash
					tajribalarini taxlili va keyingi ish rejasini tuzishga tayyorgarlik

2. Keys bayoni. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.


2. Keys bayoni. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning konseptual asoslari muhim ko‘rinishi bo‘lib, u muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi.




Keys topshirig'i: Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning konseptual asoslari amalga oshiriladigan vazifalarni bosqichlar bo'yicha belgilang:

Bosqichlar	Vazifalar
1-bosqich 2-bosqich 3-bosqich 4-bosqich 5-bosqich	- ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish; - ta'lim-tarbiya jarayonini tashxislash; - loyihani yaratish; - pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash; - pedagogik jarayonni tashkil etish

Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'oz:



O'qituvchining yechimi:





3. Keys bayoni. Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki natijalari bilan o'lchanadi. Shaxs faoliyati, bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko'riladi. Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko'nikma va malakalarning ob'ektiv, xolis baholanishini ta'minlaydi.

Keys topshirig'i. Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

O'qituvchining yechimi:

O'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligini

baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
O'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligi	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'z fani bo'yicha yangiliklarni yaratish xohishiga egalik. 2. O'zlashtirgan yoki o'zi asoslangan yangiliklarni amaliyotga tadbiq etishda qat'iyatlilik ko'rsatish. 3. O'z faoliyatida innovatsiyalarni faol qo'llash 4. pedagogik faoliyatning samaradorligini tashkil etish 5. O'qituvchi pedagogik maxoratini namoyon eta olishi 6. O'qituvchi o'quv jarayonini faollashtirishi

4. Keys bayoni. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida vebinar texnologiyalar tobora keng qo'llanilmoqda. "Vebinar texnologiyalar" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("webinar" – web-based seminar) web-texnologiyalari va an'anaviy ta'limning o'zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminarni anglatadi. Biroq, keng ma'noda web-texnologiyalari yordamida tashkil etiladigan nafaqat seminarni, balki turli onlayn tadbirlar (seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, ayrim holatlarda trening, turli hodisalar bo'yicha tarmoq translyatsiyalari (kompyuter yoki Internet tarmog'ida namoyish etiladigan lavhalar)ni yoritishga ham xizmat qiladi.

Ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtni va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta'lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud. Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish, bir qator shart va qoidalarga rioya etish talab qilinadi.

Keys savoli: ko'pchilikning fikricha vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minotiga bog'liq. Bu fikr qanchalik to'g'ri.



O'qituvchining javobi: vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minoti ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, boshqa turdagi darslar kabi vebinar darslarning sifat hamda samaradorligi ularning metodik jihatdan tashkil etilishiga bog'liq. Tashkiliy-texnologik masalalar, ya'ni vebinar darsining Internet tarmog'igi orqali talaba, tinglovchilarga uzatib berilishining hal qilinishigina vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minoti bilan bog'liq. Bordi-yu, vebinar darslarining translyatsiyasi juda sifatli bo'lgani holda kutilgan ta'limiy natija qo'lga kiritilmasa, u holda o'quv mashg'uloti pedagog tomonidan samarali, sifatli tashkil etilmagan bo'ladi.

5-Keys topshirig'i: Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari

Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:

Asosiy farqlar	
<i>Afzalliklari:</i>	<i>Kamchiliklari:</i>
<p>1. Aniq, ma'lum tushunchalarni bilish, ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lish</p> <p>2. O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilish</p> <p>3. Vaqtdan unumli foydalanish</p> <p>4. Barcha muammolarni hal etishi</p>	<p>1. Aniq ilmiy bilimlarga tayanish bo'lishi mumkin</p> <p>2. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning shakllanishi susayadi</p> <p>3. Tassavurlarni o'zgarimasdan qolishi tinglovchilarning mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining pastligi</p> <p>4. Darsning bir xil tashkl yetilishi</p> <p>5. O'qituvchining to'la nazorati barcha tinglovchilar uchun motivatsiya ishtiyoqini vujudga keltirmaydi</p> <p>6. Tinglovchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi</p> <p>7. Eslab qolish darajasi hammada teng bo'lmaganligi sababli guruhda o'zlashtirish pastligi.</p> <p>8. Kasbiy muammolar va ularni hal etish yo'llari</p>



VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Loyihalash Projecting	Boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat	An action aimed at developing the essence of an activity or process, activity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means
“Assesment” texnologiyasi “Assessment technology”	Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
Axborotli loyihalar Information projects	O'quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta'limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig'ishga yo'naltirilgan loyihalar	Projects intended for collecting theoretical information aiming at realization of scientific projects or organization of yeducational process
Vebinar texnologiya Webinar technology	Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta'lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqea yoki hodisalar bo'yicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyatsiya)lar	Broadcasting organized via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings, trainings, various yevents with the help of Web technologies
Dars ishlanmasi Lesson planning	Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan	An obligatory document completed by a teacher and a project that has yeducational



	hujjat	yessence
Dramatik o'yinlar Dramatic games	Psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar	Games intended for solving psychologic and social issues
Didaktik o'yinlar Didactic games	O'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, yevents, objects that are being studied
Ijodiy loyihalar Creative projects	Indiviual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta'lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko'rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo'naltirilgan loyihalar	The projects intended to creat new yeducational products (activity report, yexhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and yelectronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity
Individual ta'lim Individual yeducation	Ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or yeducational means (literature, computer, television, redio, yetc.) during yeducational process
Innovatsion ta'lim Innovative yeducation	Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga	Education that allows to develop skills and qualities f a student



	oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim	
Innovatsion faoliyat Innovative activity	Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualiy muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat	An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards
Innovatsion Innovation	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system
Interfaol ta'lim Interactive education	Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim	The yeducation based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde
Ishbilarmonlik o'yinlari Business games	Ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka va sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar	Activities organized in order to master skills in running a certain activity, process or relationships and their yeffective and proper organization
"Keys-stadi" texnologiyasi "Case study" technology	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in yearching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems
Konsorsium Consortium	Masofaviy ta'limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma	A union of two universities that organize a distance learning



Loyiha Project	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness
Loyiha ta'limi A study of project	Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics
Mahorat darslari Master classes	Ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilgan samarali o'qitish shakli	An effective form of teaching organized to spread progressive pedagogical experiences
Moderator Moderator	Masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbat va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog	A pedagog leading seminars, trainings, debates and forums organized in the frames of distance learning
Modellashtirish Modeling	Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish	Developing a model that discloses principal essence of an event, process and system
Model Model	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
Modernizatsiya Modernization	Ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi	Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations
Modul	1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq	1) units that consists of interrelated elements in the



Module	elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi	system; 2) notion meaning parts that create a certain technology; 3) logically completed units of study materials
Modul ta'limi A study of module	O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi	A certain form of organization of yeducational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps
Muammoli vaziyat Dilemma	Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and yeffective accomplishment
Muammoli ma'ruza A problem lecture	O'qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faolliyatini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza	A lecture aimed at increasing students' study activity in solving an issue or dilemma
Muammoli ta'lim Problem yeducation	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Muammoli ta'lim	talabalarda ijodiy izlanish,	The technologies that



texnologiyalari Problem yeducation technologies	kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari	develop students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Muammo Problem	Hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masala	an issue that has practical and theoretical significance and needs to be dealt with or solved
Mustaqil ta'lim Independent learning	OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim	education aimed at preparing the students of higher yeducational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs
Novatsiya Novation	Tizimdagi ayrim elementlarnigina o'zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat	An activity that serves to change certain yelements in the system
Pedagogik muammo Pedagogical problem	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution
Rivojlanish Development	Shaxsning fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon	A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual's physiological and intellectual development



<p>Rivojlantiruvchi ta'lim Developing yeducation</p>	<p>Talabalarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim</p>	<p>Education aimed at revealing and developing students' inner capacities</p>
<p>Rolli o'yinlar Role-playing games</p>	<p>Ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar</p>	<p>Activities that allow to yexplore the psychological state and actions of an individual when accomplishing the assignments and obligations</p>
<p>Syujetli o'yinlar Plot games</p>	<p>Pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o'zaro bog'liqligiga asoslangan o'yinlar</p>	<p>Activities that are organized based on the interrelation of activities of individuals who participate in pedagogical situations</p>
<p>Tadqiqot loyihalari Projects of research works</p>	<p>Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar</p>	<p>Projects that have scientific study characteristics</p>
<p>Ta'lim jarayonini loyihalashtirish Projecting the yeducational process</p>	<p>O'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati</p>	<p>A targeted yeducational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activites and its assessment</p>
<p>Ta'lim innovatsiyalari Yeducational innovations</p>	<p>Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl,</p>	<p>Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to yexisting problems in learning process or yeducational sphere and that guarantee yeffective results</p>



	metod va texnologiyalar	
Ta'lim tizimini modernizatsiyalash Modernization of educational system	Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi	Improving or developing an existing mechanism in order to provide sustainable development of continuous educational system that meets students' needs and interests as well as society's social, economic and cultural and country's skilled personal needs
Uzoqlashtirilgan auditoriyalar Distant auditoriums	Bir oliy o'quv yurtida tashkil etilayotgan o'quv kurslari, ma'ruza va seminarlarning undan uzoq masofada joylashgan ta'lim muassasalarining o'quv auditoriyalariga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko'rsatuv, videoanjuman va radio eshittirish ko'rinishida uzatilishi	A transmission of courses, lectures and seminars to classrooms or lecture halls in remote places organized in universities (colleges) via telecommunication means in the form of synchronous TV or radio programs, video forums
Fasilitator Facilitator	Masofaviy ta'lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarining faoliyatini natijasini muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog	A teacher who helps to search for scientific solutions to the problem of the results of activities of groups that use distance learning services, and who develops communication occurring in groups, effectively and objectively assesses activity of groups
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim	Talabani fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student



Student-centered yeducation	rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim	by considering his thinking and action strategies
Shaxsni rivojlantirish Developing an individual	Individdda vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni	A process of occurring physical and psychological changes in an individual
Edvayzer Advisor	Bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining talabalar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi	An advisor who assists in an independent accomplishment of a thesis, course projects by students
O'yin Game	Kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli	An important type of individual's activity and a form or method of mastering by imitating the relationships by children
O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi) Game technologies (game learning)	Ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri	One of the types of yeducation (pedagogical technologies) aimed at creating a process of yemotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social yexperiences by a student
O'quv loyihasi Learning project	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv	1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing



	harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita	the practical assignments based on theoretical knowledge; 3) a didactic mean that develops, yeducates, increases knowledge and develops skills, competence
Hamkorlik ta'limi Cooperation yeducation	O'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-talaba(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim	Education based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process



VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rahbariy adabiyotlar.

1. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz, 8-jild. – T.: O‘zbekiston, 2000.
2. I.A.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz, 9-jild. – T.: O‘zbekiston, 2001.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”. –T.: 2008.-176 b.
4. I.A.Karimov. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”. –T.: 2011.-440 b.
5. O‘zb. Res. Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.- 48b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori T.-2016-yil 29-dekabr.
11. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz- Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017y.- 592 b.
12. Mirziyoyev Sh. M. 7 fevral 2017 yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonidan
13. “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi T.: -2016 yil.
14. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” Davlat dasturi T.: -2017 yil.



II. Normativ-huquqiy hujjatlar

15. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi” PQ-1533-son Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-son Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 25-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 278-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

20. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.

21. Aripov M. Internet va elektron pochta asoslari.- T.; 2000.– 218 b.

22. Barkalov S.A. Системный анализ и принятие решений.– Воронеж: NPS VGU, 2010y. 662s.

23. DUET-Development of Uzbekistan Yenglish Teachers*- 2-tom. CD va DVD materiallari, Toshkent.: 2008.

24. Michael McCarthy “English Vocabulary in use”. Cambridge University Press, 1999, Presented by British Council.

25. Ismailov A.A, Jalalov J.J, Sattarov T.K, Ibragimxodjaev I.I. Ingliz tili amaliy kursidan o'quv-uslubiy majmua. Basic User/ Breakthrough Level A1/-T.: 2011. – 182 b.

26. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008. – 180 b.

27. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2009. – 160 b.

28. Norenkov I.P., Zimin A.M. Информационные технологии в образовании.



Uchebnoe posobie.M.: Izd. MGTU im. N.Baumana. 2002.-336s.

29. Simonovich SV., Yevseev G.A., Muraxovskiy V.I. WINDOWS: laboratoriya mastera: Prakticheskoe rukovodstvo po effektivnym priemam raboty s kompyuterom - M.: ACT-PRESS: Informkom-Press, 2000. - 656 s.

30. Spisnadel V.N. Osnovy sistemnogo analiza. Uchebnoe posobie. – Sankt-Peterburg: Izdatelskiy dom «Biznes-pressa»,2000.–17s.

31. Zeer E.F., Shaxmatova N. Lichnostyu orientirovannye texnologii professionalnogo razvitiya spetsialista. – Yekaterinburg, 1999. – 244 s.

32. Sattarov E., Alimov X. Boshqaruv muloqoti. – T.: “Akademiya”, 2003. – 70 b.

33. Mahmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: 2006. – 230 b.

34. Mahmudov I.I. Boshqaruv professionalizmi: psixologik tahlil. – T.: “Akademiya”, 2011. – 154 b.

35. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X. To‘xtaxo‘jaeva tahriri ostida. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2008. – 208 b.

36. Dyachenko V.K. Novaya didaktika. – M., 2001.

37. Ijtimoiy pedagogika. / Egamberdieva N. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.

38. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.

39. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar.–T.:Moliya, 2003.

40. Samostoyatel'naya rabota studentov: metod ukazaniya / sost.: A.S.Zenkin, V.M.Kirdyaev, F.P.Pilgaev, A.P.Лащ – Saransk: Izd-vo Mordov. un-ta, 2009.

41. Sovremennyye obrazovatel'nyye texnologii: uchebnoe posobie/pod red. N.V. Bordovskoy. – M.: KNORUS, 2010. – 432s.

42. Slastenin V.A. Isaev I F., Shiyanov Ye.N. Obshchaya pedagogika. V 2-x ch. – M.: VLADOS, 2003. Ch.1

43. Stolyarenko A.M. Psixologiya i pedagogika. – M.: YuNITI-DANA, 2008.

44. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiqiy asoslari – T.: 2006.

45. Xutorskoy A.V. Didakticheskaya evristika. – M.: 2003.

46. Yarmatov R. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.

47. Shixova O. F., Shixov Yu. A. Kvalimetricheskii podxod v obrazovanii. //J. Obrazovanie i nauka. 2013. № 4 (103) – S . 40-57.

48. Jukova G.S., Komarova Ye.V., Nikitina N.I. Kvalimetricheskii podxod v sisteme dopolnitelnogo professionalnogo obrazovaniya spetsialistov sotsialnoy sfery: monografiya. – M.: Izdatelstvo RGSU, 2012. – 186 s.

49. “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi T.: -2016 yil.



IV. Internet saytlar

50. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

51. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

52. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

53. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

54. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.